



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI  
PEDAGOGIKA FAKULTETI  
MEHNAT TA'LIMI KAFEDRASI**

**5112100- Mehnat ta'limi yo'nalishi bitiruvchisi**

**Hayitov Jonibekning  
bakalavr darajasini olishi uchun yozgan**

**“Mehnat ta'lim darslarida kasb-hunarga yo'naltirish  
ishlarini amalga oshirish usullari”**

**mavzusidagi**

# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Ilmiy rahbar: \_\_\_\_\_ dots. E.J.Turdiyev

“Himoyaga tavsiya etildi”

Fakultet dekani:

\_\_\_\_\_ dots. F. Ochilov

“\_\_\_\_\_” 2019 y.

# Mundarija

<b>Kirish.....</b>	<b>5</b>
<b>I -BOB O'quvchilarni kasb-hunar yo'naltirishning ilmiy-nazariy asoslari.....</b>	<b>7</b>
1.1 Kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarning taxlili.....	7
1.2 Kasb-hunarga yo'naltirishning pedagogik, ijtimoiy va psixologik asoslari.....	13
1.3 O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish maktab tizimi.....	20
<b>II-BOB Mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish .....</b>	<b>24</b>
2.1. Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish	24
2.2. Darsdan tashqari vaqtarda kasb-hunarga yo'naltirish .....	37
2.3. Kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha o'quv-metodik xonasining faoliyatini tashkil etish va unga raxbarlik qilish .....	42
<b>Xulosa .....</b>	<b>57</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar.....</b>	<b>58</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbliги** Respublikamizda yoshlarga ta’lim-tarbiya berish, ularni barkamol avlod qilib voyaga yetkazish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bir vaqtda ularni istiqbolli kasblarga yo‘naltirish muhim muommolardan biri hisoblanadi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq taraqqiyot yo‘lini belgilashda yoshlarning kasb tanlashga alohida ahamiyat berar ekan, “Biz haqiqatdan ham qashshoqlik va qoloqlik kishanidan qutilmoqchi bo‘lsak, yoshlarni istiqbolli kasblarga yo‘llash bilan jiddiy shug‘ullanishimiz va ularni zamonaviy kasblarni egallahlarida yordam berishimiz lozim. Bu ishda xasislik yaramaydi” – deb ta’kidlagan.

Yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish murakkab jarayon bo‘lib, uni ijtimoiy – iqtisodiy, psixologik, fiziologik, ta’lim-tarbiya va tashkiliy-uslubiy muammolarning majmui sifatida qarash mumkin. Hayotda o‘z o‘rnini topa olish, ongli ravishda kasb tanlash, unga moslashish, kasbiy mahorat malakalarini va madaniyatini egallah hamda mehnat resurslardan unumli foydalanish kabi masalalar inson hayotida muhim o‘rin tutadi.

Kasb-hunarga yo‘naltirishni amalga oshirishga oila, məktəb, mahalla, jamoatchilik va ishlab chiqarish korxonalari ishtirok etadi. Bu borada ta’lim maktablarining o‘rni beqiyosdir.

O‘rta umumta’lim maktablarida o‘quvchi-yoshlarni fanlardan chuqur bilim olishlari, bilan bir qatorda ularga insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatga va mehnat kishisiga hurmat ruhida tarbiyalash hamda ongli ravishda kasb tanlashlariga amaliy yordam beriladi.

Mehnat ta’limi jarayonida o‘quvchilar ishlab chiqarish faoliyati, texnologiyalar, buyumlar tayyorlash asbob uskunalar, texnika vositalari bilan tanishadilar. Shuningdek turli xil kasblar, ularning mehnat va ishlab chiqarish faoliyati bilan tanishish imkoniyati mavjud.

O‘quvchi yoshlarni kasb hunarga yo‘naltirish muammosiga oid ilmiy tadqiqot

ishlari va maktab tajribasini o'rganish hamda tahlil qilish va maktab tajribasini o'rganish hamda tahlil qilish shuni ko'rsatadi, mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilarni ongli ravishda to'g'ri kasb hunarga yo'naltirish muammosi metodli darajada ishlab chiqilmagan va u dolzarb muammo hisoblanadi. Shuni nazarda tutgan holda biz bitiruv malakaviy ishimizni "Mehnat ta'lim darslarida kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini amalga oshirish usullari" deb nomladik.

**Bitiruv ishimizning maqsadi:** Mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirishning tashkiliy shakl va usullarini ishlab chiqish.

**Vazifalari:**

1. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini o'rganib chiqish;
2. Umumiy o'rta maktablarda kasb-hunarga yo'naltirish tizimini tahlil qilish;
3. Mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirishning tashkiliy shakllari va usullarini aniqlash;
4. Mehnat ta'limi bo'yicha darsdan tashqari vaqtarda o'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish.
5. kasb hunarga yo'naltirishda o'quv metodik xonasi (kabineti)ni tashkil qilish va unga rahbarlik qilishda innovatsion yondashuv.

**Ishlanganlik darajasi:** O'quvchi yoshlarni kasb hunarga yo'naltirish muammosining nazariy masalalari P.Magdulov, E.Choriyev, U.Nishonaliyev, A.Xodjaboyevlarning tadqiqot ishlarida yoritilgan. N.Muslimov, Sh.Sharipov, O.Qo'ysinov, K.Mustafoyevlar o'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirishda amaliyotning o'rni, maktab, oila, kasb hunar maktablari va ishlab chiqarish korxonalarining hamkorligi masalasi H.Mamedov, J.Abdullahayev, Z.Tolipovlarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

**Bitiruv malakaviy ishimizning amaliy ahamiyati** shundan, iboratki, tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan tavsiyalar o'rta umumta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish ishi bilan shug'ullanuvchi fan o'qituvchilari, sinf rahbarlari, mehnat ta'limi o'qituvchilari, o'quv-ustalari va xona mudirlari foydalanishlari mumkin. Bitiruv malakaviy ishi kirish, 6 ta bo'lim, 5 jadval, 6 rasm, xulosa,

foydalanimanligi adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 60 betni tashkil etadi.

## **I - BOB. O'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishning ilmiy-nazariy asoslari**

### **1.1 Kasb-hunarga yo'naltirish borasida bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarning tahlili.**

Bo'lg'usi mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilarini kasb tanlashga yo'llash ishiga tayyorlashda Sharq xalqlarining boy ma'naviy me'rosi katta ahamiyat kasb etadi.

Bo'lg'usi mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilarining mehnat jarayoniga, kasb-hunarlarini egallashga yo'naltirish va ushbu faoliyatlarini o'zlashtirishlarini takomilashtirish yo'lida olib borayotgan tadqiqotimiz uchun Sharq xalqlarining boy ma'naviy me'rosi va qadriyatlariga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasb-hunarga yo'naltirishning moddiy va ma'naviy me'rosimiz bilan hamohang ravishda rivojlanishi juda ko'pgina mutafakkirlarimizning, donishmandlarimizning bitiklarida va adabiy me'roslarida yuksak mahoratlari bilan birga bitildi, jahonning madaniyat xazinasiga salmoqli hissa bo'lib qo'shildi. Turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarda yaratilgan hadislar, pandnomalar, rivoyat, hikoya, doston, maqol, g'azal, ruboil, masnaviy, ertak va boshqa ko'rinishlarida insonning ta'lim-tarbiyasi va kasb-hunar o'rganishning afzalligi, halol mehnat bilan yashashning zarurligi to'g'risidagi fikrlar bizgacha etib kelgan. Bunday yozma manbalarga zardushtiylarning ulug' asarlaridan hisoblangan 4-6 asrlarda yaratilgan «Avesto»da bolalar yosh paytalaridanoq daraxt ko'chati o'tkazish, uy-ro'zgor qurollari yasash, yerga ishlov berish va chorva bilan shug'ullanishga o'rgatilishi shart qilib qo'yilishi to'g'risidagi satrlar ko'plab keltirilgan. Masalan, «Yaxshilik va ezgulik yaratish uchun kishi mehnat qilishi, o'z qo'llari bilan moddiy nozne'matlar yaratishi lozim». Albatta, Sharq xalqlari, jumladan, Markaziy Osiyo xalqlari 8-9 asrlardan boshlab islom diniga, uning aqidalariga rioya qilib kelmoqdalar. Musulmonlarning eng oliy, muqaddas kitobi bo'lgan «Qur'oni Karim» o'zining oyatlarida, suralarida mo'ta'bar Ollox nomidan xalqni, ahli

mo`minni to`g`ri yo`lga boshlaydi. «Qur`oni Karim»ning bevosita oyatlardan kelib chiqib xalq orasida turli pand-nasixat va rivoyatlar, hikoyatlar ko`rinishida yaratilgan «hadis»larda kishilarning turmush tarzini, ijtimoiy faoliyatini bir-biriga munosabatini ma'lum bir darajada tartibga solish to`g`risida o`g`it-nasixatlar beradi. Buyuk muxaddis, islam olamida yirik alloma sifatida tanilgan Imom Abu Abdullox ibn Ismoil al-Buxoriy xazratlari o`zining «Al-Jome' as-saxix» [«Ishonarli to`plam»] asarida kasb-hunar o`rganish, uning afzalligi jamiyat uchun, foydali mehnat qilish to`g`risida ko`plab hadislarni sharxlab bergenlar. Masalan, «Kishining kasbi va o`z qo`li bilan mehnat qilish» haqidagi hadisda shunday deyiladi: «Mening o`z kasbim borligini qavmimiz yaxshi bilur. Men garchi musulmonlar ishlari bilan band bo`lsam ham, shu kasbim orqali oila tebraturman».

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Farobiyning «Baxt saodatga erishuv» asarida «Agar kasb-hunar fazilati tug`ma bo`lganda, podshohlar ham istab va harakat qilib emas, balki podshohlik ham ularga faqat tabiiy ravishda muyassar bo`lgan, tabiat talab qilgan tabiiy bir majburiyat bo`lib qolar edi», deb aytildi.

Qomusiy olim Abu Rayxon Beruniyning «Mineralogiya» asarida bu haqida: «Mehnatsiz shon-shavkatga, martabaga erishgan kishi hurmatga loyiqli? Yuqori martabaga mehnatsiz erishgan kishi farog`at va roxat soyasida yashaydi, yaxshi kiyinadi, ammo ulug`lik libosidan mahrum, yalang`ochdir». Mutafakkir olim ushbu so`zlari bilan haqiqiy ulug`lik, haqiqiy rohat, haqiqiy farog`atda yashash uchun kishi halol mehnat qilmog`i lozim, agar kishi mehnatsiz holda yuqori martabalarga chiqib qolgan taqdirda ham mehnat qilmasa, bu holda kishi yuzaki obro`ga ega, aslida esa u yalang`ochdir deydi.

Donishmand Yusuf Xos Xojibning ta`biricha, har bir kishi ijtimoiy hayotning faol ishtirokchisi sifatida hunar o`rganmog`i, o`z hunari bilan xalqiga, Vataniga xizmat qilmog`i zarur. Hunar o`rganishga va mehnat qilishga bo`lgan intilish har bir inson uchun hayotiy ehtiyoj bo`lmog`i kerak. Yusuf Xos Xojibning «Qutadg`u bilig» asari, ya`ni «Baxt saodatga erishtiruvchi bilim» demakdir. Ushbu asar turkiy xalqlarning qadimgi ta`lim-tarbiya usullari haqidagi ilk ma'lumotlarni saqlagani bilan ham muhimdir. Shoir insonni ulug`laydi. Uning fikricha, insonning

ulug`ligi, aql-idroki, so`zlash qobiliyati, bilimi, o`quvi, hunar va kasbga egaligidadir.

Mahmud Qoshg`ariyning «Devonu lug`ati turk», (Turkiy so`zlar devoni) asarida «Ilqli, aqli odamlarga yaxshilik qilib so`zlarini tingla. Ilmlarni, hunarlarni o`rganib, amalga oshir» deyilgan. Alloma ushbu asarida kishilarni mehnat qilishga, yaxshilikka undaydi, yomonlikni qoralaydi, ilm va hunar sohiblarini e`zozlaydi, kishilarni ulardan ibrat olishga chaqiradi. Demak, ulug` donishmand o`zining ushbu so`zları bilan unumli mehnat qilishni ilmni o`rganish bilan barobar qo`yadi. Kishi mehnat qilsagina, hunar o`rgansagina ilqli, aqli kishi hisoblanib, haqiqiy yaxshilik qilish qo`lidan kelishini isbotlamoqchi bo`ladi.

Sharqning buyuk mutafakkirlaridan hisoblangan Alisher Navoiyning «Hamsa» dagi yirik dostonlaridan biri «Farxod va Shirin» dostonidagi Farxod siymosida yoshlik davrlaridan ilm-hunarga qiziqishini namuna keltirib, bu bilan yoshlarni, bir necha hunarlarni egallab olishga undaydi. SHuningdek, Navoiy Farxodni mehnat va hunarga zo`r havasli, sartaroshlik, rassomlik va naqqoshlik hunarlarini ham mukammal egallab olgan kishi sifatida ulug`laydi. Ilm va hunarni egallagan, jismoniy jihatdan chiniqqan mehnatsevar Farxod kamtarin, mazlumlarga g`amxo`r, sofdil, mard va olijanob, jasur inson bo`lib etishadi. Navoiy Farxodni suvsiz yerkarda suv chiqargan qahramon, mehnat sohasida mo`jizalar ko`rsatgan bahodir yigit sifatida ta`riflaydi. U ilm va hunarni xalq manfaati uchun xizmat ettirish lozim, deb hisoblaydi. Farxod Shirinni qidirib Armanistonga borganda, arman yurtida tog`da kanal qazish uchun qiynalib ishlayotgan kishilarni ko`radi va: «hunarni asrabon netkumdir oxir, Olib tuproqqami ketgumdir oxir!» deya o`z bilimi, hunari va g`ayratini ishga soladi, kanal qazuvchilar mashaqqatini yengillashtiradi hamda xalq o`rtasida katta shuxrat qozonadi.

12 asrda yashagan atoqli yozuvchi Voiz Koshifiy har tomonlama yetuk alloma hisoblangan. U o`zining «Futuvvatnama Sultoniy» nomli asarida 14-faslda kasb-kor va savdo, tijorat odobi haqida quyidagicha yozadi: Agar barcha kasblar uchun zaruriy odoblar xulosasi nechta deb so`rasalar, sakkizta deb aytgil: birinchidan, o`z kasbini xaromdan, shubxali mol-mablag`dan pok saqlasin.

Ikkinchidan, rizq-ro`zi zarurat uchungina kerakli kasb bilan shug`ullansin, kasbni mol-dunyo to`plashga sarflamasin. Uchinchidan, kasbni obro` olish, yaxshi nom chiqarishning sababi deb bilsin.

To`rtinchidan, moli xarom odamlar bilan muomala qilmasin. Beshinchidan, o`z hunariga bee'tiborlik, xato-nuqsonlarga, ayb ishlarga yo'l qo'ymasin, har xil iflosliklar, bulg'anishlardan saqlansin. Oltinchidan, insof chizig'idan chiqmasin, mol-matoni tanimaydigan odamlar bilan muomala qilmasin. Yettinchidan, agar tarozi ahlidan bo`lsa, toshdan urib qolmasin va ortiq ham bermasin. Sakkizinchidan, gazlama o`lchab sotuvchilar ahlidan bo`lsa, o`ziga ko`p olib qolib, boshqalarga kam bermasin, chunki barakot to`g'rilikda va jamiyatning insof yuzasidan halol kun kechirishidadir.

Voiz Koshifiyning ushbu so`zlari ham hunarmand kishilarning xalollikda, insoflikda, sofdillikda boshqalarga o`rnak bo`lishiga, odamlarning ulardan axloqiy hislatlarni o`rganishiga misollar keltiradi. Darhaqiqat, yoshlarga kasb-hunarlarni o`rgatish orqali ularni jamiyatda halol mehnat qilishga undashga bag`ishlangan bizning ilmiy tadqiqotimiz uchun ushbu dono fikrlar muhim ahamiyatga egadir. Chunki buyuk tarixiga, o`tmishiga ega bo`lgan xalqimizni, mehnatsiz, kasb-hunarlarsiz tasavvur etib bo`lmaydi.

12-13 asrning buyuk allomalaridan hisoblangan Sa'diy Sheroziy (1184-1292) «Guliston» asarida tarbiyaning ta'siri bayoniga quyidagicha hikoyat keltiradi: «bir donishmand farzandlariga shunday pandu-nasixat qilardi: «Aziz o`g`lonlarim, hunar o`rganinglar, zeroki, moli dunyoga e'timod yo'q va oltinkumush safarda xatarlidir. Qaroqchi o`g`irlab ketadi yoki egasi yeb-ichib tamomlaydi. Ammo hunar qaynar buloq, tunganmas davlatdir, agar hunarmand molidan mahrum bo`lsa, qayg`usi yo`qdir, chunki hunarning o`zi davlatdir. hunarmand qayerga borsa, qadrlanadi va uyning to`ridan joy oladi, hunarsiz odam esa hamisha mashaqqat chekadi, tilanchilik qiladi»».

So`fiylik ta'limotining yirik namoyondasi Baxouddin Naqshband ta'limotida asosiy o`rin tutgan g`oyalar:

1. Kishilarning halol mehnat qilishga, hunar o`rganishga, o`z mehnati

mevasidan bahramand bo`lishga chaqirish;

2. «Dast ba kor-u dil ba yor» - ya`ni «qo`ling ishda-yu, ko`ngling olloxda bo`lsin» degan ma`noni bildiradi.

U kishi talabalarni madrasaga qabul qilish paytida dastlab biron kasbing bormi deya so`raganlar, hunarsiz odamni esa o`qishga qabul qilinmagan.

Agar kishi hunarli bo`lsa, u bilimini haqiqatga bag`ishlaydi, o`z mehnati bilan kun kechirishga sarflaydi, agar kishi hunarli bo`lmasa u halol mehnatni unutadi, nopol ishlarga qo`l urishi mumkin deb ogohlantirali.

Bahouddin Naqshbandning «Naqshbandiya» deb atalgan ta`limoti 11-10 asrda O`rta Osiyo va Xurosonda keng tarqaldi. U har bir kishini dehqonchilik, chorvachilik, quruvchilik, savdo, naqqoshlik kabi hunarlarni o`rganishga, egallahsga undaydi.

Mehnat va kasb ta`limi o`qituvchilarini kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda halol mehnat qilishga, turli kasb-hunarlarni egallahsga o`rgatilib borilishi xalqimizning butun taraqqiyoti tarixida, turli davrlarda muqaddas an'anaga aylanib borgan. Mutafakkirlar, allomalar, ahli donishlar, nazariyotchi va amaliyotchi olimlar tomonidan bu sohada turli davrlarda tadqiqot va izlanishlar, kuzatishlar olib borib, fikr va muloxazalarini xilma-xil asarlarda bayon qilganlar.

Biz ham o`z tadqiqtomizni olib borish jarayonida mehnat ta`limi o`qituvchilarini kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda kasb-hunar o`rgatish, ularni halol mehnat faoliyatiga tayyorlash jarayonini turli davlatlarda turli sohalarning talqin qilinishi darajasini aniqlash, kuzatish, tahlil qilishga, qolaversa, mustaqil O`zbekiston pedagogikasida bu sohada erishilayotgan natijalarni qisman bo`lsada o`rganishga harakat qildik.

Mustaqil Respublikamizda xalqimizning ming yillab yig`ilgan tajribalarini, xalq pedagogikasi yutuqlarini, urf-odatlarini, an'analarini, hozirgi davrda mehnat va kasb ta`limi o`qituvchilarini kasbiy tayyorgarligida ta`lim va tarbiya berishga yo`naltirilgan ko`pgina yirik, nazariy va amaliy ahamiyatga molik pedagogik tadqiqtolar amalga oshirilgan va oshirilmoqda.

Bo`lg`usi mehnat va kasb ta`limi o`qituvchilarini xalqning mehnat an'analariga, mehnat bayramlariga, unumli mehnat faoliyatiga, jarayoniga, kishilarga hurmat, ularning turli kasb-hunarlarni egallashlariga dastlabki qadamlar hisoblanadi va mehnat tayyorgarligining muhim omilidir.

O`zbekiston Respublikasida ham uzoq vaqtlar mobaynida mehnat va kasb ta`limi o`qituvchilarini kasb tanlashga yo`llash ishiga tayyorlash, ularning unumli mehnat jarayonidagi faoliyatga tayyorlash, kasb-hunar o`rgatish, xalq xo`jaligining turli sohalarida mehnat qilishga o`rgatishga tayyorlashning turli masalalari bilan ko`pgina olimlar, tadqiqotchilar shug`ullandilar. Ular o`z tadqiqot natijalarini nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalari, monografiyalari, o`quv qo`llanmalari, metodik tavsiyanomalar tarzida bayon etdilar.

N.Sh.Shodiev-yoshlar kelgusida hayotga, mehnatga, ma'lum kasblarga tayyorgarligi masalalari, o`quvchilarni kasb tanlashlarining pedagogik asoslarini yoritish bilan, mahalliy sharoitlarda o`quvchilarning ijtimoiy-foydali, unumli mehnatni tashkil etishda sinfdan va maktabdan tashqari ishlarini tashkil etish metodikasini takomillashtirish bilan hamda bo`lg`usi o`qituvchilarni ushbu jarayonga rahbarlik amaliy faoliyatiga tayyorlash masalalari bilan shug`ullandi.

E.T.Choriev-respublikamiz sharoitida o`quvchilarning qishloq xo`jaligi mehnatiga tayyorgarligi, mehnat tarbiyasi tizimini va tartibini yaratdi.

P.T.Magzumov-o`quvchilar ijtimoiy foydali, unumli mehnatining turli qirralari, tomonlarini tashkil etish shakllarini, me`yorlarini ko`pgina asarlarida yoritdi.

N.S.Sayidaxmedov-o`quvchilar mehnat amaliyotining pedagogik sharoitlari, oliy o`quv yurti talabalarini yoshlarning unumli mehnatiga rahbarlik qilishga tayyorlash muammolari bilan muvafaqqiyatli shug`ullandi.

A.R.Xo`jaboev o`zining ilmiy tadqiqotlarida mehnat va kasb ta`limi o`qituvchisining o`quv-metodik ta'minotining pedagogik asoslarini nazariy jihatdan ishlab chiqdi, amaliyotda qo`llashning yo`llarini ko`rsatib berdi. Ilmiy-pedagogik faoliyatida esa ko`pgina kasb-hunarlar tavsifnomasi, standartlarini ishlab chiqishda ishtirop etdi.

Bo`lg`usi mehnat va kasb ta`limi o`qituvchilarini kelajak hayotga, mehnatga, ma'lum kasb-hunarga tayyorlash ishida, ularga xalq xo`jaligining tuzilishi, hozirgi zamon ishlab chiqarishi, yangi texnika, ilg`or texnologiya, avtomatika elementlari, turli materiallar va asbob-uskunalar, jihozlar, qurilmalar bilan tanishish va ishslash, ishlab chiqarish, unumli mehnat kasblari, kasb egalari hayoti, faoliyati va haqozolar bilan tanishtirishda nazariy o`qitishdan tashqari ishlab chiqarish amaliyoti ham muhim rol' o`ynaydi. Hozirgi zamon oliy ta`lim muassasalarida amalda qo'llanilayotgan o`quv dasturlari mazmunini tanlashda mehnat va kasb ta`limi o`qituvchilarini tayyorgarligini takomilashtirishda kasb tanlashga yo'llash asoslarini o`rgatishdan iboratdir. Kasbga yo`naltirish ta`limi maqsadini va vazifalarini belgilashda o`quv jarayonida, albatta o`ziga xos pedagogik usullar, vositalar ko`plab qo'llanishi lozim bo`ladi. Hozirgi davrda ta`lim-tarbiya tizimida, mehnat ta`limida xalqimizning milliy, ma`naviy, madaniy me`roslaridan, qadriyatlaridan, tarixiy yutuqlaridan foydalanishning yo'llarini pedagogik sharoitlarini belgilash ishi ko`pgina izlanishlar qatori tadqiqotimizning asosiy yo`nalishlaridan hisoblanadi.

## **1.2. Kasb-hunarga yo`naltirishning pedagogik, ijtimoiy va psixofiziologik asoslari**

Yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash - g`oyat muhim vazifadir. Shu boisdan yoshlarning kasb tanlash muammosi o`rta umumiyligi ta`lim maktabi ishida katta o`rin tutadi. “Kim bo`lsam ekan” degan savol har bir yigit va qiz uchun eng asosiy muammolardan biridir. Odamning shundan keyingi butun hayoti ana shu muammoni hal qilishga bog`liq. Kasbni to`g`ri tanlash mehnatda va ijtimoiy faoliyatida eng yuksak ko`rsatkichlarga erishishga yordam beradi, mehnat jarayonida va uning natijalaridan qoniqish esa ijodkorlikni eng ko`p namoyon etish, eng yaxshi hissiy kayfiyatda bo`lish, tanho bir kishining ham, umuman jamiyatning ham barcha hayotiy rejalarini birmuncha to`la amalga oshirish imkonini beradi. Jamiyat hamma zamonlarda yosh avlodga ijtimoiy va kasbiy tajribani berish to`g`risida g`amxo`rlik qilib keldi. Insoniyat yashashining ilk

davrlarida bu tajriba meros bo`lib qolar, avloddan-avlodga o`tar edi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan odamga nisbatan qo`yilgan talablar ham oshdi, bu esa turli kasblarda ishslash uchun xodimlarni tanlashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish zarurligini taqozo etdi.

O`zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki yillaridanoq yoshlarni kasb tanlashga yo`naltirish masalalariga katta e'tibor berildi. K.D. Davlatov, N.N.Shodiev, P.T.Magzumov, A.R.Xujaboev, A.Sh.Magdiev va boshqalar o`quvchilarini kasbga yo`naltirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish bilan shug`ullandilar.

Hozirgi vaqtda, ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy taraqqiyot sharoitida maktab o`quvchilarini kasbga yo`naltirishning muhimligi ancha oshdi. Bir tomondan- ishlab chiqarishni murakkablashtirayotgan xilma-xil kasblar va mutaxassisliklarnnng mavjudligi, ikkinchi tomondan-bir qator barqaror shaxsiy xususiyatlari bilan ajralib turgan odamlarning mavjudligi kasblarni, oliv o`quv yurtlarini tanlashda, kichik mutaxassislarni ish o`rinlariga joylashtirishda va qayta joylashtirishda ana shu omillarni, umuman inson omilini hisobga olishni qat'iy talab qiladi.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari inson omili eng asosiy omillardan biri sifatida birinchi o`ringa chiqarib qo`ydi. Ijtimoiyadolat odam o`z individual qobiliyatlarini namoyon etishiga ko`proq e'tibor berilishini taqozo qilmoqda. Bu vazifani hal qilishda shaxsiy manfaatlar va jamiyatning kadrlarga bo`lgan talab-ehtiyojlari yoshlarni erkin va ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashning ilmiy asoslangan tizimi bo`lmish kasb tanlashga yo`naltirishga muhim o`rin ajratilmoxda.

Yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash masalasiga yoshlarni har tomonlama va uyg`un rivojlantirishning muhim sharti sifatida qaralmoqda. Bu ish shaxsni milliy g`oyaviy, ma'naviy-ahloqiy, mehnatsevarlik, aqliy, estetik va jismoniy jihatdan kamol toptirish bilan, ya'ni butun ta'lim tarbiya jarayonini, uning butun yaxlitlik bilan uzviy birlikda va hamjihatlikda amalga oshiriladi.

Xalq talim vazirligi tassarufidagi o`quv muassasalarida shu sohadagi bir

qator qarorlarida takidlab o`tilganidek, vujudga keltirilayotgan kasbga yo`naltirishning davlat tizimida umumiyligi ta'lim maktabiga, o`qituvchiga yetakchi o`rin ajratilmogda. Ayni o`qituvchi mehnat ahliga bo`lgan zamonaviy talablarni hisobga olib, umummehnat va kasbiy mahorat hamda malakalarni egallashdagina emas, balki kasbni to`g`ri tanlashda ham o`smirlarga yordam berishi lozim. Kasb to`g`ri tanlanganda ular o`z qobiliyatlari va qiziqishlarini yaxshiroq ro`yobga chiqarishlari hamda jamiyatga ko`proq naf keltirishlari mumkin.

Maktabda kasbga yo`naltirish ishi zarur natijalarini berishi uchun u uzluksiz jarayon bo`lishi va o`zaro bog`langan bir qancha bosqichlardan iborat bo`lishi lozim.

Ilk kasbga yo`naltirish (I-IV sinflar) bolalarni mehnatga tayyorlashdan, yosh xususiyatlarini hisobga olib, ularni kasblar, mehnat olami bilan tanishtirishdan, ularda o`z mehnati bilan boshqalarga naf keltirish ehtiyojini shakllantirishdan iborat. Bunga esa bolalarni qo`ldan keladigan ijtimoiy-foydali mehnatga, o`quv va o`yin faoliyatining har xil turlariga jalb etish mumkin.

O`rta bo`g`inda (V-VII sinflar) maktab o`quvchilari ijtimoiy-foydali, unumli mehnatga kirishadilar, ularda kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatga molik sabablari, mehnat faoliyatining aniq sohasiga bo`lgan qiziqish shakllanadi.

Navbatdagi bosqichda (VIII-IX sinflar) o`quvchilarda tizimlashtirilgan bilimlar, kasblar olamida mo`ljal ola bilish mahorati, aniq kasbga bo`lgan qiziqish shakllanishi lozim, asosiy e'tibor yuqori sinf o`quvchilarini moddiy ishlab chiqarish sohasidagi mehnatga tayyorlash ijtimoiy-kasbiy jihatdan bir maqsadni ko`zda tutganligiga qaratilishi kerak.

Ongli ravishda kasb tanlash uchun o`quvchining bir qator kasblarni yetarlicha bilishi, bilganda ham ularning kishini o`ziga jalb qiladigan tomonlarini emas, balki qiyinchiliklarini ham yaxshi bilishi, o`zining shaxsiy sifatlariga ko`ra tanlangan kasbini muvaffaqiyatli egallay olishi va keyingi ish jarayonida o`z malakasini takomillashtirishi talab qilinadi.

Hozirgi vaqtga qadar kasbga yo`naltirish ishlari yetarlicha yuqori saviyada olib borilmadi, ko`pincha rasmiy tusda bo`ldi. Natijada maktabni

tamomlaganlarning kasb tanlashi tasodifiy bo`lardi. Ishlarning ko`pchiligi u yoki bu kasbning nimadan iborat ekanligini aniq tasavvur qilmas edi. Kasb-hunar kollejlarning besh mingga yaqin o`quvchilari bilan savol-javob qilinganda shu narsa aniqlandiki, ularning faqat 25% kasbini mакtabning tavsiyasiga binoan, 10% o`rtoqlarining maslahatiga ko`ra, 10% ro`znama, radio, televideniya orqali berilgan e'lолlarga, qo`sнnilar, tanish-bilishlarning maslahatlariga muvofiq, 25% otionalarning maslahati, 10% kasb-hunar kollejlarning xodimlarining, 20% i tashxis markazi tavsiyalari bo`yicha tanlanganlar. Albatta, bu ma'lumotlar har davrda va har xil mintaqalarda ob'ektiv holda turlicha, ammo shu narsa ravshanki, o`quvchilarning aksariyat ko`pchiligi kasblarni tasodifiy ravishda tanlaydilar. «Siz nima uchun shu kasbni tanladingiz?», - degan savolga 30% o`quvchi: «Bu haqda o`ylab ko`rganim yo`q»- deb javob bergen.

Kasbni anglamay turib, tasodifiy tanlash shunda namoyon bo`ladiki, o`qishning dastlabki paytlarida o`quvchi qandaydir qiziqish bilan qaraydi. Keyinchalik esa bu qiziqish so`nib boradi. Kasb-hunar kollejlarning birinchi yil o`qiyotgan o`quvchilardan so`ralganda ularning 30%, ikkinchi va uchinchi yil o`qiyotganlardan so`ralganda esa faqat 15% tanlagen kasbidan mammunligini aytgan.

Hozirgi vaqtida yoshlarni kasbga yo`naltirish masalalari bilan davlat, jamoat va yoshlar tashkilotlari, buyurtmachilar shug`ullanadilar. Biroq bu ishda maktab asosiy o`rin egallaydi.

Hozirgi kunda bozor munosabatlariga va uzluksiz ta'limga o`tish munosabati bilan maktab yoshlarni ongli ravishda kasb tanlashga, jamiyat uchun foydali va zarur bo`lgan muayyan mehnat faoliyatiga tayyorlashda yana ham katta ahamiyat o`ynaydi. O`quvchilarni kasbga yo`naltirish ularning har biriga alohida-alohida yondashishni talab etadi. Bunda shaxsning temperamenti, irodasi, diqqati, belgilangan maqsadga erishishda qat'iylik, tashabbuskorlik, uyushqoqlik, intizomlilik, topshirilgan ishni bajarishga mas'uliyat bilan munosabatda bo`lish kabi fazilatlarini e'tiborga olish zarur. Bundan tashqari, kasbga yo`naltirish davomida kasbni tanlash sabablarini: kasbning ijtimoiy ahamiyati, qiziqish va

havas, kasbga tayyorgarlik, oila an'analari, ota-onalar, pedagoglar, o`rtoqlarining maslaxatini hisobga olish lozim.

O`quvchilarni uzoq vaqt o`rganish natijasida sinf murabbiylari ularning har biriga tavsifnomma tuzadilar. Bunday tavsifnomma kasb tanlash va o`quvchiga u yoki bu kasbni tanlashni taklif qilish uchun asos bo`ladi. Kasbga layoqatlilikni tanlash maxsus komissiya tomonidan amalga oshiriladi. Unga o`qituvchilar, psixologlar, buyurtmachi tomonidan mutaxassislar, vrachlar kiradi. Ular har bir o`quvchiga qanday kasbni tanlash kerakligini aytadilar va buning sababini asoslab beradilar. Masalan, xolerik temperamentli bola yaxshi andoza yasovchi usta slesar bo`la olmaydi, chunki unga mikronning o`ndan bir ulushigacha aniqlikka erisha borib, uzoq vaqt o`lchov asboblarini ishlash qiyinlik tug`diradi yoki melanxolik tez javob berishni talab qiladigan mashinalarni boshqarishni muvaffaqiyatli egallab ololmaydi. Sezgi a'zolarida bironbir nuqsoni bo`lgan bolalarga bu kasblarni tavsiya qilib bo`lmaydi. Masalan ba'zi rang-tuslarni farq qila olmaydigan (daltonik) bolani har qanday transport turini boshqarishga qo`yib bo`lmaydi.

Ko`rishida shunday kamchiligi bo`lganlar metallurg bo`lib ishlashi mumkin emas. Kasb xususiyatlarini va ularning tavsifnomalarini o`rganish uchun, har bir kasb uchun professiogramma tuziladi. Malaka tavsifnomalari professiogrammaga qo`shimcha bo`lib xizmat qiladi.

Professiogramma mazmuniga taxminan quyidagilar kirishi kerak:

1. Mazkur kasbdagi mutaxassis talab etilayotgan bozor iqtisodiyoti sohasi tavsifnomasi, sohaning xodimlarga bo`lgan ehtiyoji, avtomatlashtirish va kompleks mexanizatsiyalash munosabati bilan shu kasbdagi ishlarning rivojlanish istiqbollari.

2. Ixtisoslik tavsifnomasida tavsiya qilingan kasbning mazmuni, mehnat ob'ektlari, vositalari.

3. Ishchiga qo`yiladigan talablar (mas'uliyat darajasi, tashabbus va mehnatning ijodiy elementlari, ishning gigienik sharoitlari, tibbiy va psixofiziologik ko`rsatkichlar yoki to`g`ri kelmasligini ko`rsatuvchi belgilar, ayollar mehnatini qo'llash mumkinligini va boshqalar).

4. Boshlang`ich ixtisoslik razryadi doirasida o`quvchining muvaffaqiyatli ishlashi uchun umumiylar ma'lumoti va kasbiy tayyorgarligiga qo`yiladigan talablar (ishlab chiqarish malakasini yanada oshirishni hisobga olgan holda).

5. Mehnatni tashkil etishning iqtisodiy sharoitlari, mehnatga haq to`lash tizimi.

6. Mazkur kasb vakillari (ishlab chiqarish ilg`orlari, mehnat qahramonlari)ning biografik ma'lumotlari.

O`ta mas'uliyatli va ish sharoitlari havfli deb ta'riflanadigan ishlar uchun professiogramma qator talablar bilan to`ldiriladi. Ular uzoq vaqt mobaynida tez ishslash malakasini, qo`l barmoqlarining kuchini, oyoqlar kuchini, barmoqlarning harakatchanligini, ko`z, qo`l va oyoqlar muvofiqligini, har ikkala qo`lning ixtiyoriy harakatlarini talab etadi.

Professiogrammalar korxonalar yoki maxsus muassasalar(xonalar, laboratoriylar) tomonidan tuziladi. Ularni ishlab chiqishda muhandislar, psixologlar, shifokorlar, o`qituvchilar ishtirok etishi kerak.

Suhbatlar o`tkazish yo`li bilan o`quvchilar professiogramma bilan batafsil tanishtiriladi. O`quvchining alohida talablar qo`yiladigan kasblarni egallab olishiga uzil-kesil imkoniyat yaratish uchun ergonomik laboratoriyalarda tadqiqotlar ham o`tkaziladi. Kasb tanlashda matabning ota-onalar bilan mustahkam aloqasi katta ahamiyatga ega. O`quvchilarda kasbga oid qiziqishlarning paydo bo`lishi va rivojlanishidagi muvaffaqiyat ko`p jihatdan maktab va ota-onalarning birgalikdagi samarali ishlariga bog`liqdir. Har xil kasblarlar sulolasi an'analarini har tomonlama qo`llab-quvvatlash, ommalashtirish va targ`ib qilish kerak.

Tegishli adabiyotlarni o`qish ham ko`pgina kasblar bilan tanishishda jiddiy yordam beradi. Bunday adabiyotlar maktab kutubxonasida bo`lishi kerak, albatta.

O`quvchining o`zligini tushunishi, o`z kuchi va imkoniyatlarini, shu jumladan o`z qobiliyatlarini to`g`ri baholay bilishi, keyin esa shaxsiy qiziqishlari va imkoniyatlarini kasb talablari bilan solishtirib ko`rishi kasbni muvaffaqiyatli tanlash shartlaridan biridir.

Vatanimizdagi va chet eldag`i psixologik adabiyotda o`quvchi shaxsining turli

tomonlarini mustaqil baholash, shu jumladan kasb tanlashda o`z yo`lini belgilash jarayonida qobiliyatlarni va kasbga layoqatlilikni mustaqil baholashni tahlil qilishga urinish hollari uchrab turadi. O`quvchilarning qobiliyatları va kasbga layoqatlilikini mustaqil baholashning, shuningdek mikromuhitni baholashning o`ziga xos-xususiyatlarini aniqlash uchun quyidagilar zarur:

1. O`quvchilarning bu fazilatlari o`qituvchilar, ota-onalar, o`rtoqlari tomonidan tahlil qilinishi;
2. Mehnat faoliyatining u yoki bu sohasiga layoqatlilikni mustaqil baholash bilan o`quvchilarning kasbga oid niyatlarini ana shu mustaqil baholashning shakllanish sharoitlari o`rtasidagi nisbatini aniqlash;
3. O`quvchilarning mustaqil baholashi bilan tashqaridan bergen baholarni taqqoslash asosida o`qituvchilar, ota-onalar, o`rtoqlari baholarining o`xshashlik darajasini aniqlash.

Bunday qobiliyatlarni, mustaqil berilgan baho darajalarini (birinchi, ikkinchi, uchinchi) hisobga olgan holda mustaqil baholashning quyidagi o`lchamlari (yetarlicha baholamaslik, ortiqcha baho berish, baholarning mosligi) bo`yicha qarab chiqish kerak.

Biron-bir faoliyat sohasiga layoqatligini o`zi baholashni biror kasbni egallah niyatlari bilan taqqoslash besh guruh o`quvchilarni ajratib ko`rsatishga imkon berdiki, ularda:

- 1) biron-bir faoliyat sohasiga layoqatlilikini baholash ham, tarkib topgan biror kasbni egallah niyatlari ham yo`q (barcha tipdagisi maktablar bo`yicha o`rtacha 4,7%);
- 2) biron-bir faoliyatga layoqatligini o`zi baholash yo`q, lekin muayyan darajada kasbni egallah niyatlari bor (18,1%);
- 3) layoqatligini baxolash kasbni egallah niyati bilan mos keladi (66,2%);
- 4) layoqatligini baholash shakllangan, lekin kasbni egallah niyatlari yo`q (4,2%);
- 5) faoliyat sohalaridan biriga layoqatli deb baholansa, kasbni egallah niyati boshqa sohada bo`ladi (6,6%).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish va kasb bo`yicha yangi sohalarning vujudga kelishi, kasbga oid mehnat xususiyatining o`zgarishi, hozirgi zamon ishlab chiqarishi xodimlariga qo`yiladigan talablarning murakkablashuvi - bularning hammasi o`rta maktabni tamomlovchi o`quvchilar uchun qanday kasbni egallash muammosini hal etishda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Shu munosabat bilan kasbga yo`naltirish ishlarini keng avj oldirish zarurati ancha ortadi.

Ana shu ishning muvaffaqiyatli rivojlanib borishi ilmiy-psixologik muammolarning muayyan bir majmuini ishlab chiqishni talab etadi. Bunday muammolar qatoriga quyidagilar kiradi: kasblarni va ular tomonidan qo`yiladigan talablarni, kasb mahoratini egallash va kasbga ko`nikish jarayonida shu kasb uchun muhim sifatlarning tarkib topish shart-sharoiti va qonuniyatlarini o`rganish. Shaxsning psixologik xususiyatlarini hamda kasbiy layoqatligini aniqlash va oldindan aytish metodlarini, shuningdek xilma-xil mehnat turlarining rivojlanish istiqbollarini o`rganish va xalq xo`jaligi, fanning turli sohalarida kadrlarga bo`lgan ehtiyojni xisobga olish zarur.

Kasblarni o`rganish ham katta ahamiyatga ega. Negaki ularning natijalari ham kasbga yo`naltirish ishiga, ham turli kasblar haqida keng ma'lumot berish va kasblarni targ`ib qilishga asos qilib olinishi kerak.

Yuqori sinflarda kasb tanlash vazifalari munosabati bilan o`quvchilarni va ota-onalarni qiziqtirayotgan kasblar, yoshlarning kelib qo`shilishiga eng ko`p ehtiyoj sezayotgan sohalar, kasbga taalluqli tayyorgarlikka ega bo`lishning aniq imkoniyatlari bilan bat afsil tanishtirish zarurligi haqidagi masala paydo bo`lmoqda.

Kasbga oid maslahatlar berish va kasbga layoqatlikni tanlash vazifalariga javob beruvchi kasblarning psixologik tavsifnomalarini tuzish ancha murakkab vazifadir. Bu esa xodimning oldiga kasb tomonidan qo`yiladigan psixologik talablarni aniqlashni taqozo etadi. Bunday dasturlarni tuzish xodimlardan maxsus tayyorgarlikni talab etadi va ayni vaqtda ancha murakkab ilmiy-psixologik tadqiqot hisoblanadi. Bunda tadqiqotning ob'ektiv metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu xil kuzatishlar, savol-javoblar faoliyatning tahlili va kasblarni

o`rganishning boshqa usullari asosida olinadigan professiogrammalarni tajribada sinab ko`rishni ham o`z ichiga oladi. Bunda kasblarning qiyosiy-psixologik tavsifnomalari uchun miqdoriy mezonlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bu sohadagi tadqiqotlar asosan izlanish tusida bo`ladi. Shu bilan birga tadqiqot metodlari va kasblar tavsifnomasi ishlab chiqilgan va amalda foydalanilayotgan sohalarda ham tadqiqotlar va izlanishlar davom ettiriladi.

Kasblar psixologik tavsifnomalarining xilma-xilligi turlicha amaliy vazifalarga muvofiq kasblar psixologiyasi sohasidagi bilimlarimizdan foydalanishning har xil shakllaridan iboratdir. Bu bilimlarning to`laligi va ilmiy asoslanganligiga qarab xilma-xil vazifalarni hal etishda ularni amaliy jixatdan qo`llash imkoniyatlari ortib boradi. Shuning uchun kasblarning tavsifnomalarini tuzish bilan birga, shu bosqichning o`zidayoq ilmiy tadqiqotlarga qo`yiladigan barcha talablarga javob beradigan kasbga oid mehnat psixologiyasi sohasida asosli ilmiy tadqikotlar olib borish katta ahamiyatga ega. Bu sohada psixologiyada ilmiy ahamiyatga ega bo`lgan qator tadqiqotlar o`tkazildi va o`tkazilmoxda. Ularning ba'zi birlari, masalan, mehnat ta'limi, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish va boshqalari ishlab chiqarishdan boshlanib, so`ngra laboratoriya sharoitiga o`tkaziladi. Biroq bu tadqiqotlarning natijalaridan odatda psixografik maqsadlarda foydalanilmaydi. Vaholanki, kasbga oid mehnat psixologiyasining juda ham murakkabligi va uning ko`p tomonlama amaliy ahamiyati chuqur tadqiqotlar olib borishni talab etadi.

O`quvchilarni kasblar bilan tanishtirishning har qanday shakllarida ular xaqidagi ma'lumotlarning muayyan tizimini shunday tuzish kerakki, u kasblar tasnifini ishlab chiqishni talab etsin. Mumkin bo`lgan ko`pgina tasniflar orasida mazkur holda psixologik tasnif alohida qiziqish uyg`otadi. Ularning tuzilishini aniqlashga urinish ishlari hali tugallangan emas va keyingi tadqiqotlarni talab etadi.

Ta'lim tizimida kasbga yo`naltirish ishlarining keng avj oldirilishi munosabati bilan vatanimizda va chet ellarda kasblarni o`rganish, ularning natijalaridan foydalanish tajribasida mavjud bo`lgan barcha qimmatli narsalarni o`rganish

muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda shuni unutmaslik kerakki, chet el psixografik materiallaridan foydalanish ularning ilmiy jihatdan etarlicha asoslamaganligi hamda bizdagi va kapitalistik mamlakatlardagi kasbga oid mehnat sohasidagi farqlar sababli ancha cheklangandir. Bunga sozlovchi kasbi misol bo`la oladi. G`arb davlatlarda nashr qilingan ma'lumotnomada sozlovchi mehnatining faqat bir turi tavsifi beriladi. Ish jarayonida malakali sozlovchi-ishchi stanoklarni sozlashning hamma turlarini, eng oddiyalarini ham bajaradi. Stanoklarga esa kam malakali operatorlar xizmat ko`rsatadi. Mehnat taqsimotining bunday shakli bizda joriy qilinmagan. Operatorlar malakasining ortib borishi va ular sozlash ishlarining eng oddiy turlarini bilib olishga qarab, ular asta-sekin malakali sozlovchi bo`lib boradilar. Chunki sozlash ishlarining murakkab turlari (yangi olingan, kapital tamirdan chiqqan va boshqa stanoklarni sozlash) ular zimmasiga tushadi.

Ana shu cheklanishlarga qaramay, masalan, g`arb davlatlarda kasbga yo`naltirish maqsadlarida yaratilayotgan kasblar haqidagi ma'lumotnomma tarzidagi adabiyotlar sistemasi diqqatga sazovordir. Bular yirik nashrlar bo`lib, ham kasb tanlash masalalari bo`yicha konsultatsiya beruvchi kishilar uchun, ham kasb tanlayotganlar uchun zarur bo`lgan yaxshi sistemalashtirilgan qisqa ma'lumotnomma materiallardan iboratdir. Kasblarga bo`lgan talab va kasblar xususiyatining o`zgartirishiga bo`lgan talab asosida ma'lumotnomalar qayta ishlanadi va ba'zi materiallar aniqlashtiriladi. Ikki toqli kasblar lug`ati eng to`liq qo'llanma hisoblanadi. Unda g`arb davlatlarda mavjud bo`lgan taxminan 40000 kasb va ixtisosliklarga oid ma'lumotlar bor. Birinchi tomda ana shu hamma kasblar va ixtisosliklar haqida qisqacha ma'lumotlar beriladi. Ular alfabit tartibida joylashtirilgan va olti raqamli harfli kod bilan ta'minlangan. Ana shu koddan foydalanib, kasblar haqida bat afsil ma'lumotlar olish mumkin.

Bundan tashqari, 700 dan ortiq g`oyat keng tarqalgan kasblar haqidagi ma'lumotnomma bor.

Ancha kuchaytirilgan kasbga yo`llash ishlarini olib borish uchun metodik axborot va ma'lumotnomma adabiyotlarni tuzish muhim vazifalardan biridir.

Kasb-hunar maktablari, o`quv texnik markazlari, umum talim maktablar, ota-

onalar, o`quvchilar, shuningdek yoshlarni ishga joylash ishi bilan aloqador bo`lgan muassasalarining xodimlari ana shunday adabiyotga alohida ehtiyoj sezadilar.

Kasblarni o`rganishda ham jiddiy kamchiliklar bor. Bu esa respublikamizda kasbga yo`naltirish ishlarining yagona sistemasini yaratishni qiyinlashtiradi. Chunonchi, hozirgi vaqtga qadar menedjer, konsalting va boshqa kasblarning professiogrammalari tuzilgan emas. Bu yoshlar bilan olib boriladigan kasbga yo`naltirishshining samaradorligini ancha pasaytiradi.

Shuningdek, kasbiy guruhlarning asosiy vakillari va xalq xo`jaligi, fan va madaniyat sohasidagi asosiy mehnat turlari uchun qisqacha psixologik tavsifnomalar, ma'lumotnomalar adabiyotlar uchun kasblar kompleks tavsifnomalarining tarkibiy qismi bo`ladi. Shu maksad uchun mavjud materiallardan foydalanish bilan bir qatorda tavsifnomalari bo`limgan kasblar va ixtisosliklarning keng o`rganilishini tashkil etish kerak. Bunday ish qisqa muddatga mo`ljallangan bo`lishi lozim. Tegishli mutaxassislarini jalb qilgan holda uni amalga oshirish rejasi tuzilishi zarur. Bunda birinchi navbatda diqqat-e'tiborni maktabni bitirish arafasida ishlash yoki ishchi kasblarini o`rganish istagini bildirgan o`quvchilar uchun ma'lumotnomalar tuzishga qaratish, keyin esa kasblarning asosli ma'lumotnomalarini tuzish kerak.

Ayni vaqtda xilma-xil tadqiqot metodlarini qo`llagan holda kasblarni ilmiy-psixologik jihatdan o`rganishga doir jamoa tarzidagi professiografiya ishlari keng avj oldirilishi kerak.

Bu o`rinda yoshlarning Kasbga oid muhim fazilatlarni egallab olish jarayonini va bunda o`quvchilarda vujudga kelayotgan xatoliklarni o`rganish muhim ahamiyatga ega. Masalan, ish sur'ati tomonidan yuksak talablar qo`yiladigan harakatlarni hamda farqlanishi qiyin bo`lgan belgilarni aniqlashda o`z-o`zini tekshirishdan foydalanish bilan bog`liq bo`lgan harakatlarni, shuningdek qo`shimcha ko`rsatkichlardan foydalanish asosida yashirin jarayonlarni sozlash bilan bog`liq harakatlarni talab etadigan kasblarni egallashda ta'lif jarayonida qiyinchiliklar va xatolar paydo bo`lishi aniqlangan.

Biron-bir amaliy faoliyatni egallahsh ayni vaqtda psixofiziologik

takomillashish jarayonidir. Bunday takomillashish deganda kishining psixofiziologik holati faoliyatni (ishni) talab darajasida bajarish uchun yaroqli tip yoki namunaga yaqinlashib kelishi tushuniladi. Mashqlarni o`rganish yuzasidan olib borilgan ko`pgina ishlar shuni ko`rsatadiki, faoliyatning yaxshilanishi faqat odam psixofiziologik funktsiyalarining miqdor jihatdan o`sishi bilan emas, balki sensor-motor reaksiyalar tezligi va aniqligining ortishi bilan bir vaqtida sodir bo`ladi. Mahoratning quyi bosqichidan yuqori bosqichga o`tish kishining psixofiziologik funktsiyasining miqdoriy-sifat o`zgarishlariga tayanadi.

Faoliyatning ba'zi bir turlarida bunday o`zgarish o`z-o`zidan ravshan.

Masalan, velosiped haydashni endi o`rganayotgan kishiga muvozanatni saqlab turish asosiy qiyinchilikni tashkil etadi, yiqilib tushmaslik uchun u avvallari hosil qilingan ko`nikmalarni safarbar etadi, o`zining tabiiy belgilaridan foydalanadi. Lekin velosipedga nisbatan psixofiziologik moslashish vazifasi hal etilgandan keyin boshqacha psixofiziologik mexanizmlardan foydalanishni talab etuvchi yangi vazifalar - chidamlilikni, tezlik hissini, yo`l bo`ylab harakat qilish vaqtidagi taktik usullarni egallah vazifasi paydo bo`ladi.

Boshqa faoliyat turlarida psixofiziologik tuzilishni o`zgartirish unchalik sezilarli emas, ba'zan u mahorat tarkib topishining ancha kechki bosqichlarida ro`y beradi. Bu o`zgarish shaxsiy-psixologik tafovutlarning tabiiy asosiga hech bir ta'sir etmaydi. Biroq kasbga kirishib borish jarayonining turli bosqichlarida goh u, gox bu xususiyat tayanch vazifasini o`taydi. P. T. Magzumov tadqiqotlarini dalil keltiramiz. U tokarlik kasbini egallahning dastlabki bosqichini o`rgangan edi. P. Magzumov shuni aniqladiki, kasbni egallahning mazkur bosqichida nerv jarayonlari kuchli bo`lgan kishilar mehnat topshiriqlarini muvaffaqiyatlil uddalaganlar. Keyingi bosqichda esa nerv jarayonlari ancha zaif kishilar bir oz ustunlikka ega bo`lishi aniqlandi.

Muallif shunday farazni ilgari suradi, asab jarayonlari nisbatan kuchli bo`lgan kishilar, «zo'r chidamlilikni, ko`p kuch-g`ayrat sarflashni talab etadigan topshiriqlarda o`zlarini yaxshi, to`la namoyon qildilar». Asab jarayonlari nisbatan zaif kishilarda ishdagi muvaffaqiyatlarning ortib borishini kasbni egallahning

birinchi boskichidagi qiyinchiliklar, topshiriqlarning qiyinligi bilan emas, balki yangi sharoitlarda vujudga kelayotgan tormozlanish bilan tushuntirish mumkin. Binobarin, faoliyatning psixofiziologik asosini o`zgartirish faqat funksional jarayonlarga taalluqli emas, balki nerv sistemasining asosiy xususiyatlari ham taalluqlidir.

Kasbiy layoqatlilik shaxsning sifati bo`lib, uning shakllanishi psixofiziologik tuzilishni asta-sekin mahorat darajasi turlicha bo`lgan topshiriqlarni bajarishga muvofiqlashtirishdan iboratdir. Bunda asab sistemasi asosiy xususiyatlarining ana shu ish turlariga mos keladigan funksional ko`rinishlari takomillashadi, ba'zi hollarda esa asab sistemasining bir tayanch xossasidan boshqasiga o`tish ro`y beradi.

Shuni nazarda tutish kerakki, boshlang`ich mahoratning nisbatan tez egallab olinishi kelgusida shu kasbda ishlash davomida paydo bo`ladigan qiyinchiliklar shunchalik tez bartaraf etilishiga kafolat bermaydi. Kasbni egallahda mahoratning qaror topishi alohida jarayon bo`lib, har bir kishining mahoratni egallah yo`lida paydo bo`ladigan qiyinchiliklar ma'lum darajada shu bilan belgilanadi.

Shaxsning fazilati sifatida kasbga layoqatlilikning shakllanishi haqida yuqorida aytilgan fikrlar oldingi zamon psixologiyasining ma'lum printsiplaridan kelib chiqadi.

Aytilganlardan kasbga layoqatlilikni aniqlash masalasini kishining o`zi mehnat (yoki o`quv) faoliyatida sinab ko`rmasdan oldin qo`yish mumkin emas, degan xulosaga kelinadi. Kasbga oid mehnat uchun zarur bo`lgan psixofiziologik mexanizmlar tarkib topmaguncha kasbga layoqatlilik (yoki layoqatsizlik) haqidagi masalani hal qilish mumkin emas. Bu mexanizmlar faqat faoliyatning o`zida shakllanishi mumkin. Kishining ba'zi bir kasblarga layoqatliligining shakllanishiga qulaylik tug`diradigan yoki uni osonlashtiradigan biror-bir tabiiy xususiyatlarni aniqlash mumkin. Tabiiy belgilarni oldindan aytish ham mehnat jarayonini va kasbga oid ta'lim berishni oqilona tashkil etishda va kasbga ko`nikishida, ko`pchilik hollarda esa mehnat faoliyatini boshlayotgan kishilar uchun aniq ish joyini tanlashda shubxasiz muhim ahamiyatga egadir.

Natijada sof amaliy nuqtai nazardan faqat so`zlar haqida gap borayotgandek tuyuladi, chunki psixofiziologik tashhiz har holda inkor qilmaydi, shunday ekan, qanday so`z tanlanishi, nimalar belgilanishi, layoqatlilikni shakllantirishning biologik shart-sharoitini tashkil etuvchi kasbga layoqatlilik yoki tabiiy iqtidorning aniqlanishi baribir emasmi?

Haqiqatda esa gap kasbga layoqatlilik mavzusining o`zini tushunishdagi tub farqlar haqida bormoqda, chunki shart-sharoitlarning mavjudligi hali kasbga layoqatlilik shakllanishiga kafolat bermaydi. Bu shakllanish o`zining psixofiziologik jihatiga ega bo`lgan alohida muammodan iboratdir. O`ziga xos asoslarga o`z talablarini qo`yadigan faoliyatning shunday turlariga kasbiy layoqatlilikning biologik shart-sharoitlarini aniqlash vaqtida buni unutmaslik kerak. Bu shart-sharoitlar layoqatlilikni shakllantirishga qulaylik tug`dirsa ham, o`z-o`zicha imkoniyatning voqelikka aylanishiga o`tishini ta'minlay olmaydi. Xuddi shuningdek kasb har qanday normal kishi uchun qulaydir, degan gap har bir kishi bu kasb sohasida mutaxassis bo`lib yetishadi, degan ma'noni bildirmaydi. Layoqatlilikning shakllanish muam-molarini tushunmaslik yoki unga etarli baho bera olmaslik tufayli shunday vaziyatlar vujudga keladiki, mehnat faoliyatiga monelik qiladigan hech qanday to`sinq bo`lmasa ham kishi unga layoqatsiz deb e'lon qilinadi, haqiqatda esa uning layoqatligiga shakllanishi lozim bo`lgan shart-sharoit yaratib berilmagan.

Bunday hollar ko`pincha san'at, fan, sport, shuningdek boshqa sohalarda ham uchraydi.

Kishining tajribasi, bilim va malakalari ortib borishi bilan birga u qisman ongli ravishda, qisman tushunib yetmagan holda o`zining muvaffaqiyatli faoliyati uchun zarur bo`ladigan o`ziga xos mexanizmlarni egallaydi. Tabiiyki, bu jarayonning rivojlanishi uchun muayyan vaqt kerak.

Shuning uchun ham bir faoliyatdan ikkinchisiga doimiy ravishda o`tib turish bu faoliyatlarning birortasiga ham layoqat shakllanmasligining garovidir.

Faoliyat tegishli sabablar mavjud bo`lgandagina vujudga keladi. Kasb-ko'rlik faoliyatiga undaydigan ijobiy sabablarning manbalari - bu kasbning nufuzi,

mehnatning o`zidan hosil qilinadigan bevosita qoniqish, ma'naviy va ijtimoiy o`sish imkoniyatlari, moddiy va ma'naviy rag`batlantirishlardir.

Kichik ijtimoiy guruh bo`lgan jamoa ham muhim ahamiyat o`ynaydi, mehnat topshiriqlari ana shu jamoa bilan birgalikda hal qilinadi.

Ijobiy sabab-faoliyatning vujudga kelishi, binobarin, layoqatlilik shakllanishining zarur shartidir. Shaxs rivojlanishining biologik shart-sharoitlari o`z-o`zicha kasbkorlik yo`nalishidan mahrumdir. Shuni eslash kifoyaki, insonning biologik tipi ko`p asrlar mobaynida o`zgarmay qolgan.

Kishilik jamiyatida esa bu davrlarda minglab xilma-xil kasblar o`zgardi, eskilari yangilari bilan almashdi. Kasbkorlik yo`nalishini jamiyatning o`zi o`z ehtiyojlariga qarab yaratadi va tabiiy o`ziga xos negizlar asosida turli-tuman kasb egalari shakllanadi. Nerv sistemasining asosiy xususiyatlari esa, agar ta'bir joiz bo`lsa, kasbkorlik jihatidan neytraldir.

Ayni bir vaqtida nerv sistemasining har bir xususiyati va xususiyatlarning har bir majmui vazifasiga ko`ra ko`pgina imkoniyatlarga ega bo`lib, bir-biriga o`xshamagan turli shakllarda namoyon bo`lishi mumkin.

Kishining biologik xususiyatlariga qarab uning kasbkorlik vazifasini belgilash mumkin bo`lavermaydi, ayniqsa hozirgi vaqtdagi kasblarning ko`plari doimo fan-texnika taraqqiyoti taqozosi bilan o`zgarishlar va takomillashtirishlarga duchor bo`lib turibdi. Demak, hatto oldindan aytib berishga yo`l qo`yilganda ham u yoki bu kishini aslida qanday kasbda sinab ko`rish kerakligi noaniq bo`lib qoladi, uni oldindan aytib berish paytidagi kasbgami yoki hali vujudga kelmagan kasbga tayyorlash kerakligi ma'lum bo`lmaydi.

Hal qiluvchi bo`g`in sifatida kasbga layoqatlilikni shakllantirishga yordam beradigan shart-sharoitlarni, keyin esa bu sharoitlarni yaratib berishni o`rganishni hisoblash kerak bo`ladi. Bizning jamiyatda unumli mehnatda muvaffaqiyatli ishtirok etish bu jamiyatning har bir a'zosi uchun katta ahamiyat kasb etadi, chunki ijtimoiy salmoq, o`z-o`ziga baho berish, o`z qadr-qimmatini his qilish, kasbkorlik mahorati darajasi bilan bevosita bog`liq bo`ladi. Shaxsning shakllanishining o`zi kasb egasining shakllanishi singari sodir bo`ladi, u ko`p hollarda ma'naviy boyish,

o`z-o`zini qaror toptirish, burch tuyg`usini yuksak darajada his etish, ijtimoiy e'tirof etish, ma'naviy va iqtisodiy rag`batlantirishlar bilan birga boradi. Shuning uchun ham ko`p hollarda kasb-korlik jihatidan o`sish va o`z-o`zini takomillashtirish kishilar ongida shaxsiy istiqbol bilan mos keladi. Bu istiqbol ijodiy mehnatda o`zining maqsadga intilishi bilan ijtimoiy jihatdan e'tirof qilingan yutuqlar o`rtasidagi bog`lanishni aniq tushunib yetishga asoslanadi.

Shu narsa shak-shubhasizki, shaxsiy istiqbol mehnat faoliyatining qudratli undovchisi bo`lib, chinakam mahorat sari faol harakat qilishga rag`batlantirib turadi.

Psixologiyaning sanoat va qishloq xo`jaligidagi ko`pgina kasblarga nisbatan vazifalari faqat kasbga layoqatlilikning tabiiy shart-sharoitlarini aniqlashdangina iborat emas. Bu vazifalar layoqatlilikni shakllantirish masalalariga qaratilishi, kasbni o`rgangan har bir kishini bu sohada mustahkamlanib borishga va mahoratni qo`lga kiritishga undashi lozim. Bu jihatdan mazkur kasbda, mazkur korxonada va ayrim hollarda mazkur tarmoqda shaxsiy istiqbol yaratish muammosi jiddiy e'tibor berishga loyiq masala bo`lib qolishi mumkin.

Shuni e'tirof etish kerakki, ko`pchilik kasblarda, shartli qilib gapirganda kichik mutaxassislar kasblarida shaxsiy istiqbolni amalga oshirish imkoniyatlari unchalik to`liq ishga solinmagan va bu sohada ko`p ishlarni amalga oshirish mumkin. Shaxsiy istiqbolning paydo bo`lishiga halaqit beradigan holatlarga kasbkorlik ichida ilgarilab borish darajasining aniq ifodalanmaganligi yoki uning mutlaqo yo`qligini kiritish mumkin. Ko`pgina kasblarda rag`batlantirish turlari kasb mahoratiga mos kelmaydi va shaxsning uzoq istiqbolini nazarda tutmaydi. Shaxsiy istiqbolning paydo bo`lishiga qiyinchilik tug`diradigan sabablardan biri moddiy va ma'naviy rag`batlantirish bilan mazkur korxonada uzoq vaqt mobaynida ishlab chiqarish sohasida erishilayotgan muvaffaqiyatlar o`rtasida bog`lanishning mavjud emasligidir. Shunday hollar ham bo`lishi mumkinki, kichik mutaxassisni rag`batlantirish maqsadida korxona rahbariyati ixtiyorida bo`lgan barcha imkoniyatdan foydalanib bo`lingan bo`ladi, endi bu ishchi rag`batlantirish ma'nosida hech narsa kutib o`tirmasa ham bo`ladi.

Holbuki, sanoatimiz kadrlarni mustahkamlashdan, ayniqsa o`z vazifalarini muvaffaqiyatli bajaradigan kadrlarni mustahkamlashdan manfaatdordir. Ishga kelgan kichik mutaxassisning butun mehnat faolligi davriga, ya`ni 20- 30 yoki 40 yillik muddatga mo`ljallangan sistema nazarda tutilgan bo`lishi kerak. Bu sistemada erishilgan favqulodda yutuqlar uchun mukofotlar ko`zda tutilishi lozim. Bu faqat kasb tajribasi va mahorati eng yuksak darajada egallangan, kasbga layoqatlilikning eng yuqori rivojlangan davrida sodir bo`lishi, shuningdek ishlab chiqarish sohasida va jamoat a'zosi sifatida o`z vazifalarini uzoq yillar mobaynida nuqson siz ado etgandan keyin yuz berishi mumkin.

Psixologlar, iqtisodchilar, sotsiologlar, kasb ta'limi va xodimlarning malakasini oshirish sohasidagi mutaxassislar, shifokorlar va boshqalar bilan birgalikda ma'naviy-ruhiy va iqtisodiy rag`batlantirish sistemasini ishlab chiqishlari lozim. Bunda mazkur kasbdagi ish stajiga muvofiq ravishda mehnat unum dorligi va sifat bo'yicha muayyan marralarga erishish asos qilib olinishi kerak. Natijada bu kasbga kirayotgan shaxs o`zining istiqboli ma'lum yil ishlagandan keyin qanday bo`lishini, qanday ishlab chiqarish natijalarini qo`lga kiritishi mumkinligini yaqqol tasavvur qilsin. Ish stajining ko`payishi va kasb mahoratida yangi pog`onaga ko`tarilishlar bundan keyingi rag`batlantirishlarni ham talab qiladi. Pirovard natijada xodimning shaxsiy istiqboli alohida hujjatgarka yoki shaxsiy istiqbol varaqasiga asoslanishi, u kasbkorlikdagi yutuqlar bilan rag`batlantirishlarning aloqasini aniq shaklda nazarda tutishi kerak.

Shaxsiy istiqbol g`oyasini amalga oshirishda ish shunday tashkil etilishi kerakki, ishlab chiqarishda yutuqlarga erishish uchun kurash olib borish faqat xodimning o`z shaxsiy ishi deb qaralmasligi lozim. Chunonchi, maxsus ta'lim va malaka oshirishning har qanday pog`onalarini zarur ishlab chiqarish darajasiga yaqinlashtirilishini belgilab olish zarur. Lekin hal qiluvchi narsa shaxsiy kuch-g`ayrat sarflash bo`lib qolaveradi. Bularsiz mahoratni oshirish rejaliari va undan keyin keladigan rag`batlantirishlar maqsadsiz bir narsa bo`lib qoladi.

Biroq hamma narsa uchun umumiyl bo`lgan kasbiy kamolotga erishish yo`li yo`q.

Har kim o`zining shaxsiy tabiiy iqtidori bilan eng ko`p darajada bog`langan, egallangan bilim va ko`nikmalar bilan uyg`unlashib ketgan yo`ldan borishi kerak.

### **1.3. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish mактаб тизими**

1. Mehnat ta'limi jarayonida olib boriladigan kasb tanlashga yo`llash ishining mazmuni va vazifalari Kasb tanlashga yo`llash butun pedagoglar jamoasi tomonidan hal etiladigan umummaktab vazifasi hisoblanadi. Shu bilan birga, bu ishda mehnat ta'limi alohida o`rinni egallahini esdan chiqarmaslik kerak.

Bunga sabab shuki, mehnat ta'liminig mazmuniga qator kasblar bilan uzviy ravishda tanishtirish va bu tanishtirish faqat nazariy jihatdangina emas, balki amaliy jihatdan ham olib boriladi. Ma'lumki, kasb to`g`risida tasavvur ana shunday tarzda berilgandagina u haqida to`liq tassavvurga ega bo`lish mumkin bo`ladi.

Kasb tanlashga yo`llash ishi butun mehnat ta'limi davomida olib boriladi, lekin uning vazifalari o`zining turli bosqichlarida o`zgarib turadi.

V-VII sniflarda asosan kasb haqida ma'lumot beriladi. O`quvchilar qanday kasblar borligi, uning klassifikatsiyasi bilan tanishadilar. Bu kasblarning elementlari o`quvchilarning ustaxonadagi faoliyati mazmunini tashkil etadi. Bu hol o`qitishning shu davrida o`quvchilarni umummehnat tayyorgarlik vazifasiga to`la mos keladi.

VI sinfda va ayniqsa, VII sinfda kasb to`g`risida ma'lumot berish bilan bir qatorda mehnatda tarbiyalash ishlari ham olib boriladi. Bunga sabab shuki, VII sinfni bitirish arafasida o`quvchilar bo`lg`usi mehnat tayyorgarligining soha(yo`nalishi)ni tanlab olishlari zarur. Har bir soha bo`yicha ko`plab ommaviy kichik mutaxassislar kasblarini o`z ichiga oladi. Bular ustaxonadagi mashg`ulotlarning mazmuni bilan izchil aloqada bo`lgan kasblar bo`lishi (masalan, metallga ishlov berish texnologiyasiga va yog`ochga ishlov berish texnologiyasiga oid kasblar) yoki ular bilan hech qanday aloqador bo`lmagan kasblar (chunonchi, suvoqchilik, buyoqchilik va shu kabi qurilish kasblari)

bo`lishi mumkin.

Mehnat tayyorgarligining sohani tanlashda ko`pincha munozarali vaziyatlar vujudga kelib, bu munozarada o`quvchilarning ota-onalari ham ishtirok etishlari mumkin. Mehnat tayyorgarligining ayrim sohalari go`yo e'tiborsizdek tuyulib, hech kim bu kasbni tanlashni hoxlamaydi. Boshqa sohalarga esa, aksincha, keragidan ko`proq o`quvchilar qiziqib qolishadi.

Afsuski, maktablarning ish tajribasida shunday manzarani kuzatish mumkin, o`qituvchilar bu masalani o`quvchilarning o`zlashtirishlariga qarab hal etishga urinishadi, ya'ni a'lochi o`quvchilarga tanlash huquqi beriladi yomon o`zlashtiruvchilar esa qolgan kasb turlaridan birortasini tanlashga majbur bo`lishadi.

Masalani bu tarzda hal etish har jihatdan noto`g`ridir. Hayot yo`lini zo`rma zo`raki tanlaganlardan kelajakda yaxshi mutaxassis chiqishini kutib bo`lmaydi. Shubhasiz, a'lochi o`quvchilar rag`batlantirilishga loyiqlar, biroq bu narsa boshqalarni kasb tanlash erkinligidan mahrum qilmasligi kerak. Shunday ham bo`ladiki, mehnat tayyorgarligining sohani to`g`ri tanlagen o`quvchi keyinchalik o`ziga shu soha doirasidagi kasbni tanlaydi. Shundan kelib chiqib, mehnat tayyorgarligining sohasini tanlash ixtiyoriy bo`lishiga harakat qilish lozim.

Bunga qanday erishish mumkin? Bu savolga javob berish uchun avvalo kasb tanlash erkinligini qanday tushunish lozimligini aniqlab olish zarur. Bizning jamiyatimizda hohlagan kasbni tanlash yo`lida siyosiy, ijtimoiy, milliy va boshqa xil g`oyalar yo`q. Ammo bu huquqdan o`z o`rnida foydalana bilish va bunga o`rgatish darkor. Gap shundaki, u yoki bu kasbga bo`lgan talab uning e'tiboriga qarab emas, balki bozor iqtisodiyotining tuzilishiga qarab aniqlanadi. Shuning uchun, xohishimizdan qat'i nazar, ob'ektiv tarzda kechuvchi ilmiy-texnik taraqqiyot bu rejaga o`z shartlarini kiritadi. Va biz yoshlarni bozor iqtisodiyoti ehtiyojlariga mos keladigan kasblarda ishlashga tayyorlashimiz kerak. Ravshanki, bu o`ta muhim vazifaninig bajarilishini ta'minlash kasb tanlash erkinligi fuqorolik burchini tushunish bilan, mamlakatimizda barcha kasblar ham kerakli va faxrli ekanligini anglash bilan uyg`unlashib ketishi lozim.

Oldingi talim jarayonida kasb tanlash haqidagi masalani faqat o`zining manfaatlari nuqtai nazaridan hal etmasligi kerak. Agar u siyosiy jihatdan yetuk bo`lsa, bunday qilmaydi ham. O`smirlar to`g`risida gap ketganda, ular shaxs sifatida endigina shakllanib kelayotganliklarini e'tiborga olish zarur.

Shu munosabat bilan mehnat ta'limiga alohida umid bilan qaraladi. Tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, o`quvchilarning ma'lum qismi kichik mutaxassis bo`lib ishlashni hohlamasliklarini ko`rsatadi. Buning sababi shundaki, o`quvchilar kichik mutaxassis kasblarining mazmuni to`g`risida to`g`ri tasavvurga ega emaslar, jamiyatimizda kichik mutaxassislar qanday e'zozlanishini yaxshi bilmaydilar. O`quvchilar bilan aynan mana shu yo`nalishda ish olib borish kerak, zero davlatimiz manfaatlari o`rta maktabni bitirganlarning ko`pchiligin moddiy ishlab chiqarish va aholiga xizmat ko`rsatish sohalariga jalb qilishni taqozo etadi.

Mazkur holda masala teng qimmatli ommaviy kichik mutaxassislar kasblariga taalluqli ekanligi ishni osonlashtiradi. Teng qimmatli kasblar deganda insonga har tomonlama kamol topish, moddiy farovonlik, jamiyatda o`z mavqeyiga ega bo`lishga imkoniyatlar yaratishi jihatidan teng bo`lgan kasblar tushuniladi. Shu boisdan, agar ommaviy kasblar ichida ayrimlari e'tiborsizdek tuyulsa, bu oddiy chalkashish bo`lib, mehnat o`qituvchisi bu xatolikni o`z vaqtida bartaraf etishi kerak. Buning uchun esa ommaviy kasblarda umumiylar tomonlar ko`p ekanligini ta'kidlash kerak.

Amalda uchraydigan barcha kasblar bilan o`quvchilarni tanishtirib chiqishning imkoni yo`q, albatta. Lekin ko`pgina kasblar inson oldiga qator umumiylar tomonlari qo`yadi. O`smirlarni ana shu talablar bilan tanishtirib ular haqidagi tasavvurini kengaytirish mumkin. Masalan, keyingi paytda jismoniy mehnatning ma'naviy saviyasi ortayotganligi kuzatilmoqda. Aqliy mehnat faoliyatiga quyiladigan talablar tobora ortib bormoqda. Mehnat jamoasida o`zini tutishiga nisbatan ham yuqori talablar qo`yilmoqda.

Shuni hisobga olib, kasb tanlashga yo`llash ishini shunday tashkil qilish mumkinki, o`quvchilar faqat muayyan kasblar to`g`risida tasavvur olibgina qolmasdan, mehnat faoliyatiga nisbatan qo`yiladigan umumiylar to`g`risida

ham tasavvurga ega bo`layotganliklarini anglaydigan bo`lishsin.

Kasb tanlash juda muhim masala bo`lib, ko`pincha o`quvchilar uni mustaqil hal qila olmaydilar. Bu masalada ularga maktab yordam berishi kerak.

Ko`pincha sinf rahbari o`quvchiga kartochka tutib, o`quvchining, u yoki bu o`quv predmetiga munosabati, kasbga bo`lgan qiziqishi, o`qishdagi muvaffaqiyatlari, shaxsiy fazilatlari haqida o`qituvchilar aytgan ma'lumotlarni shu kartochkaga yozib boradi. Bu esa o`quvchining nimalarga qiziqishini aniqlashga imkon beradi. Agar o`quvchining qiziqishlari barqaror bo`lsa, sinf rahbari o`quvchida u tanlamoqchi bo`lgan kasb uchun zarur alomatlar bor-yo`qligini aniqlashga kirishadi. O`quvchining sog`lig`i u tanlagan kasb talablariga to`g`ri kelmaydigan hollar ham uchraydi. Bu masalani vrach hal qiladi. Shundan so`ng o`qituvchilar o`quvchining ota-onasi bilan suhbatlashib, bolani boshqa kasbga qiziqtirishga harakat qiladilar.

Lekin bu ishni xushmomilalik, ehtiyyotlik bilan bajarish lozim, aks holda o`smirning ko`ngli cho`kishi, o`zini to`laqonli odam emasdek his etishi mumkin.

O`quvchilar o`zlariga kasb tanlayotganlarida o`qituvchilar o`z tasirini o`tkazishga haddan tashqari intilmasliklari kerak. Bu o`rinda juda ehtiyyot bo`lish va o`quvchilar ushbu kasbga chindan ham qiziqadilarmi yoki bu qiziqish tasodifiy qiziqishmi, aniqlab olish lozim.

Kasb tanlashga yo`llash ishini olib borishda maktabning haqiqiy ish sharoitlarini hisobga olish darkor. Mamlakatimiz turli tumanlarining ishlab chiqarish bazasi bir xilda emas. Masalan, agar gap ya'ni dam olish maskaniga yaqin joylashgan shahar haqida boradigan bo`lsa, o`quvchilarning ko`pchilik qismi kelgusida aholiga xizmat ko`rsatish sohasida ishlash kerakligini e'tiborga olishga to`g`ri keladi. Tuman iqtisodiyoti mehnat bilan ta'minlash imkoniyatlarini ko`p jihatdan belgilab beradi. Biroq insonning individual xususiyatlari ham, odatda, qator kasb talablariga javob beradi, o`quvchilarning qiziqishlarini esa shakllantirish mumkin. Shunday qilib, kasb tanlashga yo`llash ishini davlatning u yoki bu kasbga bo`lgan extiyojlarini hisobga olgan holda va o`quvchilarning qiziqishlari hamda ishtiyoqlarini e'tiborga olgan holda olib borish mumkin.

Kasb tanlashga yo'llash ishida VIII-IX sinflar alohida o'rinni egallaydi. Bunda bir tomondan kasb tanlashga yo'llash ishi bevosita mehnat darslarida davom etib, o'quvchilar o'zлari tanlagen mehnat tayyorgarligi sohasi tarkibiga kiruvchi kasblar to`g`risida tasavvur olishadi, ya'ni kasbga intilish go`yo «torayib boradi». Boshqa tomondan esa «Ishlab chiqarish asoslari», «Kasb tanlash» maxsus predmetlarni o`rganish jarayonida o'quvchilarni xalq xo`jaligining asosiy kasblari va ixtisosliklari bilan tanishtirish yuzasidan tizimga solingan kasb tanlashga yo'llash ishi boshlanadi. Mazkur predmetda mehnat darslarida, fan asoslari o`rganiladigan darslarda o'quvchilar kasblar to`g`risida olgan bilimlar umumlashtiriladi.

Shunday qilib, VIII-IX snnflarda ma'lum darajada qarama-qarshi vazifa qo'yiladi. O'quvchi kengaytirilgan mehnat ta'limini o'tib qator o'xshash kasblar elementlarini (masalan, metallga ishlov berish uchun slesarlik, tokarlik, frezerlik ishi) o`zlashtirib oladi. Buning natijasida u boshlang`ich kasb tayyorgarligini oladi va uni kasb-hunar kollejlarida davom ettirishi zarurdek tuyuladi. Ayni paytda o'quvchi oldida kasblar dunyosi birinchi marotaba tizimga solingan holda to`liq ochib beriladi, go`yo ulardan hohlaganingni tanlab ol, deyilgandek bo`ladi. Kasb tanlash erkinligi ana shu ko`rinishdagi ziddiyatda namoyon bo`ladi. IX sinfda o'quvchi o`zi avval tanlagen kasbdan aynib, mehnat ta'limining butunlay boshqa yo`nalishini ixtiyoriy qolib qolishi mumkin.

Demak, o'quvchi faqat IX sinfda biror kasbni tanlash haqida uzil-kesil qarorga kelishi mumkin. Lekin bu bilan kasb tanlashiga yo`nalish ishi tugaydi yoki bo`shashtirib yuboriladi, deyish xato bo`ladi. Aksincha, bu ish endi yanada ta'sirchan bo`lishi lozim, ammo uning maqsadi o`zgaradi, endi birinchi rejani tanlagen kasbga muhabbat uyg`otish egallaydi. Kasb tanlashga yo'llash ishining butun mazmuni, formalari va metodlari ana shu maqsadga qaratiladi.

Yuqorida aytilganlardan, mehnat ta'limi jarayonida kasb tanlashga yo'llash ishi bir necha bosqichdan o'tib, bu bosqichlarning har birida o`z vazifalari hal etiladi, degan xulosa chiqarish mumkin.


## **II - BOB. Mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish**

### **2.1. Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish**

Ta'lim jarayonida o'quvchilarni turli xil kasblar bilan tanishtirish bo'yicha muntazam ish olib borish ularni kasb tanlashga yo'llashning muhim sharti hisoblanadi.

O'quvchilarni har bir jamoa xo'jalik; tuman, shahar ishlab chiqarish muhiti orqali mehnat faoliyatining barcha turlari bilan tanishtirish mumkin, shuning uchun ham har bir mehnat ta'limi o'qituvchisi mакtabda o'ргaniladigan fan doirasidan tashqaridagi, maktab atrofidagi ishlab chiqarish muhiti bilan yaxshi tanish bo`lishi lozim. Masalan, Toshkent shahar maktablarida ishlayotgan mehnat ta'limi o'qituvchisi metallarga mexanik ishlov berish darsida chilangarlik ishlarini o'tayotganda shaharning metall ishlab chiqaradigan zavodi bilan tanishtirishi mumkin.

Shuningdek, o'quvchilarning korxona bilan, ya'ni sanoat korxonasiga qachon




O'quv ustaxonasida ish jarayoni.

nom berilgani, ishlab chiqaradigan mahsulotning nomi hamda asosiy kasb va ixtisoslarning qisqacha ro`yxatini tanishtirish amalga oshiriladi.

Biroq o`quvchilarni korxona bilan tanishtirish batafsilroq bo`lishi mumkin. Bunda o`quvchilarni asosiy ishlab chiqarish bo`limlari (sexlar) bilan, ularning jihozlanishi, har bir sexning konkret mahsuloti, mazkur sexdagi kasb va ixtisoslarning to`laroq ro`yxati bilan tanishtirish lozim.

O`quvchilarning o`quv ustaxonalaridagi texnikaga oid ishlari ularni ishchi kasbi bilan tanishtirish bo`yicha katta imkoniyatlar yaratadi.



1-rasm. O`quv ustaxonalarida ishlatiladigan asbob-uskunalar

Shunga qaramasdan V-VII sinflardagi mehnat ta'limingining mazmuni

o`quvchilarda har qanday kasbni egallash uchun bab-baravar foydali bo`lgan umumiy mexnat bilim va ko`nikmalarini tarkib toptirishga olib keladi, bundan tashqari mehnat o`qituvchisi o`quvchilarni zamonaviy texnikaning elementlari, texnologiyasi bilan tanishtira borib, ularda zarur mehnat usullari paydo qiladi, shuningdek, uyushqoqlik, ozodalik, tejamkorlikni tarbiyalab, ularni asta-sekin hayotda o`z yo`lini tanlashga tayyorlaydi.

Maktab ustaxonalari o`z vazifasiga ko`ra o`quvchilar o`quv mehnatini ishlab chiqarish bilan bo`lgan aloqasini amalga oshiradi. O`quvchilar o`quv ustaxonalarida metallarga ishlov berish stanogida birinchi marta ishlaydilar, bu yerda ular materialga ishlov berish ustida dastlabki ko`nikma va malakalarini hosil qiladilar, texnikaga oid fikrlashlari, ijodiy aktivligi va mustaqilligi ortadi, kasb haqidagi bilimlari chuqurlashadi va kengayadi.

Mehnat ta'limi darslari ham, boshqa maktab fanlari qatori o`quvchilarda havas uyg`otishi lozim, ammo uning manbai og`zaki propaganda emas, balki o`quvchilar o`z maqsad va mehnat natijalarini ko`ra oladigan ijtimoiy-foydali xarakterdagи buyumlar (maktablar, korxonalar, otaliqqa olingan bolalar bog`chasining buyurtmalar)ini tayyorlashga oid amaliy ishlar bo`lmog`i lozim.

Shuning uchun ham, maktab ustaxonalarida mehnat ta'limining to`g`ri yo`lga qo`yilishi o`quvchilarning kasb tanlashi, ayniqsa ishchi kasbini tanlashida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo`ladi. Ishchi kasbi bo`yicha kasbga oid axborot ishlarining asosiy yo`nalishi, xarakteri mazmunini belgilash uchun mehnat o`qituvchisi o`rganilayotgan programma temasini mashinasozlik ishlab chiqarishi bilan, bu korxonada xizmat qiluvchi xodimlarning yetakchi kasblari bilan yaqindan aloqasini o`rnatmog`i zarur. Shu munosabat bilan mehnat ta'limi o`qituvchisi o`z rayonining ishlab chiqarish korxonalari hamda bu korxonalarining kasb va ixtisos bo`yicha ishchi kadrlarga bo`lgan ehtiyojini yaxshi o`rganishi lozim.

Olingen materiallar asosida o`qituvchi mehnat ta'limining konkret sanoat korxonasi bilan aloqasini aks ettiradigan jadval hamda mazkur korxona katta ehtiyoj sezayotgan yetakchi ishchi kasblari ro`yxatini e'tibor bilan tuzib chiqishi kerak.

O`qituvchi mehnat darsida programmaning u yoki bu temasini o`tish jarayonida, xususan, o`quvchilar tomonidan chilangarlikning metallarga belgi qo`yish, to`g`rilash, bukish, qirqish, arralash operatsiyalarini o`zlashtirishlarida ularni ishchi kasbi bilan qanday tanishtirganini misol asosida batafsilroq ko`rib chiqamiz. Mehnat o`qituvchisi bu operatsiyalarning to`g`ri usullarini ko`rsatib berib o`quvchilar e'tiborini bu usullarning qulayligiga, ish unumdorligi va sifatiga qaratmog`i lozim.

O`qituvchi o`quvchiga bu topshiriqlarning sifatini pasaytirmagan holda belgilangan vaqt normasida bajarishi lozimligini aytadi.

O`qituvchi chilangarlik operatsiyalarini bajarish paytida o`quvchilarda mehnat usullarini to`g`ri shakllantirishga harakat qilib, ularga agar chilangar-asbobsozlar, tamirlovchilar, chilangar-shtampovkachilar bajarishga to`g`ri keladigan ishlar xarakter jihatdan murakkab va mas'uliyatli ekanini tushuntiradi, shuning uchun mehnat usullarini qat'iy to`g`ri bajarish kerakligini aytadi. O`quvchilarni kasblar bilan tanishtirgach, o`qituvchi gazo-elektr payvandchi, ayniqsa, chilangar-payvandchi, chilangar-asbobsoz ixtisosiga ega bo`lgan ishchilar korxonada eng malakali kasb egasi hisoblanishini ta'kidlaydi.

O`quvchilarda kasbga qiziqishni tarbiyalash kasbni to`g`ri tanlashni nazarda tutadigan yetakchi motivlardan biri hisoblanadi. Demak, maktabda kasb tanlashga yo`llash ishlarining muhim yo`nalishlaridan biri o`quvchilarda kasbga bo`lgan qiziqishni aniqlash va o`stirish bo`lmog`i lozim.

O`quvchilarning kasbga qiziqishini aniqlash ularning muayyan formada tayyorlangan anketalarni to`ldirish, umumta'lim fanlari bo`yicha o`quvchilar o`zlashtirishlarini o`rganish, ularni o`qitish va kamol toptirish davomida kuzatish, kasb haqida individual suhbatlar, o`quvchilarning to`garaklarga ishtiroki, qiziqish kartasini to`ldirish («Kasb-hunar konsultatsiyasi» bo`limiga qarang), o`qituvchi va ota-onalar bilan suhbat kabi didaktik usul va metodlar yordamida amalga oshiriladi.

Olingan ma'lumotlar o`quvchi kasbni (ixtisosni) yoki o`quv yurtini to`g`ri tanlay bildimi, bular uning havasi va qobiliyatiga muvofiq keladimi, nima

sababdan mazkur kasbni yoki o`quv yurtini tanladi, ota-onalari va o`qituvchilarining fikri qanday ekanini aniqlash imkonini beradi.

Arra	Randa	Egov	Iskana	Payrahadan tozalovchi randa	Elektr parma

2-rasm. Duradgorlik asbob-uskunalar

Anketalarni to`ldirishdan oldin o`quvchilarga ular anketadagi savollarga javoblar «o`ylab» topmasliklari, balki o`z qiziqishlari va konkret imkoniyatlaridan kelib chiqmoqlari kerakligi aytildi. Haqiqatga muvofiq kelmaydigan javoblar o`qituvchini chalg`itadi va o`quvchilarning kasbga qiziqishlarini shakllantirishga doir masalalarni ancha murakkablashtiradi.

Anketa ma'lumotlarining tahlili asosida fan-o`qituvchisi, sinf rahbari har bir o`quvchining kasbga, bo`lgan qiziqishi va ularning barqarorlik darajasi, ishonchlilagini diqqat bilan o`rganadi, ana shu asosda ularni yanada rivojlantirish bo`yicha tashkiliy-metodik tadbirlar belgilaydi, o`quvchida xato yoki noaniq istaklar bo`lgan taqdirda esa tushuntirish ishlari kasbga oid suhbatlar olib borishi kerak bo`ladi. Biroq kasbga qiziqish bo`yicha bir martagina o`tkazilgan anketa usuli natijasidagi ma'lumotlar matabni bitirguncha ob'ektiv va o`zgarmas bo`lib qoladi, deb o`ylash xato bo`lar edi. Gap shundaki, o`quvchilarning u yoki bu mehnat faoliyatini tanlash bo`yicha moil va qiziqishlari har xil bo`lib, barqarorligi esa puxta sanalmaydi. Kasbga bo`lgan havas dinamikasi va rivojini kuzatib borish uchun bunday anketa tarqatish usulini har bir sinfda har yili o`tkazilgani ma'qul.

U yoki bu o`quvchining kasb tanlashida yuz berayotgan o`zgarishlarni o`qituvchi va sinf rahbari diqqat bilan kuzatishi, o`rganishi, sabablarini aniqlashi kerak. Shunday aniqlashlardan keyingina mazkur o`quvchining kasbga havasi va mayliga doir keyinti ishlar to`g`risida o`ylash mumkin.

O`quvchilarning kasbga qiziqish masalasi ko`rib chiqilganda yuz beradigan

o`zgarishlarning sifat jihatdan farqlanadigan to`rt xil darajasini nazarda tutmoq zarur.

1. Oldingi qiziqish keyingi sinfda mustahkamlanadi va rivojlanadi.
2. Oldingi qiziqishni aniqlash va kasb haqida tasavvur qilish paydo bo`ladi.
3. Dastlabki qiziqish boshqasi bilan o`ylab, asoslab tanlangani bilan almashinadi.
4. Mehnatning u yoki bu turiga nisbatan dastlabki paydo bo`lgan qiziqish unchalik o`ylab tanlanmaganligi tufayli so`na boshlaydi, uning o`rniga boshqasi paydo bo`lishi mumkin va, aksincha, kasbga qiziqish butunlay so`nishi ham mumkin. Bunday hol kichik va o`rta yoshdagagi o`quvchilarning hali ongli ravishda o`ziga kasb tanlay bilmasligi kasbga havas asta-sekin rivojlanib borishi bilan izohlanadi, uni mustahkamlash uchun esa kasb tanlashga oid ishlarni tinimsiz amalgalash kerak bo`ladi.

Kasbga barqaror va asosli qiziqish o`quvchilarning faoliyat turlari -o`quv, mehnat, sinfdan tashqari ishlar va hokazolar bilan mustahkamlanishi zarur. Ammo qiziqishning chuqur va qat'iyligi, avvalo, uning amaliy faoliyatda yanada mustahkamlanishiga bog`liq. Shuning uchun ham qishloq xo`jaligi, texnikaga oid hamda xizmat ko`rsatish mehnati darslari va texnika ijodkorligi to`garaklari ko`proq bu talablarga javob beradi.

					
<i>Tokarlik stanogi</i>	<i>Frizarlik stanogi</i>	<i>Matorli arra</i>	<i>Parmalash stanogi</i>	<i>Soat tipidagi indikatr</i>	<i>Zubilo</i>

3-rasm O`quv ustaxonalarida ishlatiladigan stanoklar

Qishloq maktablari o`quvchilarida kasbga qiziqishni tarkib toptirish uchun mehnat ta'limining qishloq xo`jaligi tajriba uchastkasi, o`quvchilar brigadasi, yosh


mexanizatorlar, ixtirochilar, tabiatshunoslar to`g`araklari singari metod va formalaridan foydalanish mumkin.

Qishloq maktablarida mehnatga tayyorlash ishlarining yaxshi yo`lga qo`yilishi o`quvchilarda qishloq xo`jaligi kasblariga qiziqish imkonini beradi: ya'ni ular agrotexnika bilim va ko`nikmalarini egallaydilar, qishloq xo`jaligining turli sohalarida foydalanish mumkin bo`lgan mehnat faoliyatiga tayyorlanadilar.



Ayniqsa qishloq yoshlarining qishloq xo`jaligida eng ko`p tarqalgan mexanizatorlik kasbiga intilishlari qayd qilinadi. Mexanizator mehnatining qiziqarli tomoni shundaki, bunda mashinalar sistemasi o`simliklarning rivojlanish biologiyasi hamda qishloq xo`jaligi ishlarining mavsumiyligini hisobga olgan holda yaratiladi, shuning uchun ham o`quvchilarning texnikaga oid bilim va ko`nikmalari agrotexnika bilimlari bilan birgalikda olib borilishi kerak.

O`quv korxonalarida mehnat darslarining yaxshi yo`lga qo`yilishi o`quvchilarning sanoat mehnatining har xil turlariga ishtirok etishlarida hal qiluvchi ahamiyat o`ynaydi. Ammo bu masalada erishiladigan muvaffaqiyat ko`pincha o`quvchining o`ziga, uning intizomliligi, tirishqoqligi, ishga o`ylab, jiddiy munosabatda bo`lishiga bog`liq.

#### O`quvchilar qobiliyatini aniqlash



<p>Texnik qobiliyat - texnikani egallashga va texnika fanlarini o`zlashtirishga bo`lgan qobiliyat.</p> <p>Texnikaga, texnika ijodiyotiga bo`lgan qiziqish, mashina va stanoklarda asboblar bilan ishlashga intilish, fizika, ximiya, matematika, chizmachilik va shu kabi fanlarni muvaffaqiyat bilan o`zlashtirish.</p>	<p>Matematik qobiliyat - fikrlashning matematik metod-larini egallash qobiliyati.</p> <p>Matematikaga bo`lgan qiziqish, mantiqiy fikrlash, analiz qilish va umumlashtirish qibiliyati, matematik bilimlarni muvaf-faqiyatlari egallash va shu kabilalar.</p>	<p>Pedagogik qobiliyat - o`qitish va ta'lim-tarbiya berish maqsadida boshqa bir kishiga ta'sir ko`rsatadi.</p> <p>Pedagogik faoliyatga qiziqish, bolalarni sevish, bolalar jamoasini uyushtira bilish mahorati, nutqning ravon va ishontira oladigan bo`lishi, talabchanlik, xushmuomalalik,adolatlilik, xolis niyatli bo`lish va shu kabilalar</p>
--	--	---



<p>Tashkilotchilik qobiliyati qandaydir bir ishni qila olish va odamlarni uyushtira olish mahorati.</p> <p>Odamlar bilan tezda til topib ketish, odam psixologiyasini tushunish, odamlar o`rtasida mehnatni to`g`ri taqsimlay olish, o`z vazifasini halol bajarish, tirishqoq bo`lish, o`z xatti harakatlariga tanqidiy qarash va shu kabilalar.</p>	<p>Adabiy-lingvistik qobiliyat - adabiy faoliyatga, tillarni o`rganib olishga bo`lgan qobiliyat.</p> <p>Nutqning yaxshi o`sganligi, lug`at boyligi rivojlanganligi, tillarni egallashga, adabiyotni o`rganishga qiziqishi, eshitib eslab qolish xotirasining kuchliligi, kuzatuvchanlik, assotsiatsiyalarning boy bo`lishi va boshqa shunga o`xshashlar.</p>	<p>San'atga bo`lgan qobiliyat - ijodiy tasavvurga ega bo`lish, obrazli fikrlash qobiliyati.</p> <p>Rassom uchun ko`rib tasavvur qilishning yorqinligi, rang va shaklni his qilish, aktyor uchun - diktsiya (talaffuz), mimika (imo-ishora), boshqalar qiyofasiga kira olish qobiliyati, nutqning ifodali bo`lishi, tabiatdagi va tevarak-atrofdagi hayotda go`zal narsalarni ko`ra bilish.</p>
--	--	--

O`quvchilarning metallga ishlov berish stanoklarida qo`l va mexanizatsiyalashgan asboblar yordamida konkret o`quv-ishlab chiqarish ishlarini bajarishi ularni sanoat ishlab chiqarishida ko`proq tarqalgan turli xil ixtisoslar: chilangarlik, tokarlik, frezerlik, randalovchi, parmalovchi singari kasblar bilan tanishtiribgina qolmay, balki ularda mehnatning bu turlaridan birini egallashga bo`lgan qiziqishini ham rivojlantiradi.

## **2.2 Darsdan tashqari vaqtarda kasb-hunarga yo`naltirish**

O`quvchilarda kasbga oid qiziqishlarni o`stirishda fermer xo`jaligiga, sanoat korxonalariga uyushtiriladigan ekskursiyalar samarali vosita hisoblanadi.

Ekskursiyaga maktab o`qituvchisigina emas, ishlab chiqarishda uchrashishni mo`ljallayotgan kasb egalari ham puxta tayyorlik ko`rishlari lozim. Ekskursiya boshlanishi oldidan o`quvchilar mazkur korxonaning ichki-tartib qoidalari, ya`ni xavfsizlik texnikasi, uning teritoriyasi va sexlarida o`zini tutish qoidalari bilan tanishtirilgan bo`lishlari kerak. Shuningdek, o`qituvchi ularga sexlarni jihozlanishi, xom ashyo, texnologik jarayonlar, tayyorlanadigan mahsulot va kasbga oid materiallar yig`ish bo`yicha aniq topshiriqlar berishi darkor. Buning uchun korxona vakili ishlab chiqarish xarakteri, uning mahsuloti, yangi texnikaning joriy qilinishi va fan yutuqlari, ishlab chiqarish ilg`orlari, ratsionalizatorlar, ixtirochilar haqida; o`qish, turmush, ommaviy-madaniy ishlar, korxonaning rivojlanish istiqbollari, jamoaning asosiy vazifalari haqida; kichik mutaxassislarga bo`lgan ehtiyoj haqidagi masalalarni yoritib berishi kerak.

O`quvchilar ekskursiyadan olgan tassurotlari va to`plagan materiallarini hisobotlar, insholar, referatlar, stendlar, albomlar tarzida rasmiylashtirishlari lozim. Shunday qilib, korxonaga uyushtirilgan ekskursiyalar o`quvchilarga ularning tanlagan kasbga munosabati hamda unga bo`lgan professional qiziqish darajasini aniqlashda yordam berishi kerak.

**To`garak ishlari.** Maktabda tashkil qilinadigan fanlar bo`yicha, birinchi navbatda, texnikaga oid to`garaklarning maqsadi - bolalarning sinf mashg`ulotlari jarayonida qondirilmagan talab va ehtiyojlarini (bu talab va ehtiyojlar har-bir o`quvchida so`f individual holda bo`ladi) qondirishdan iborat.

To`garak turlarni erkin tanlash, ularda mashg`ulotdan bo`sh vaqtarda erkin ishtirok etish, mustahkam bilim va malakalarni ishchan va ijodiy sharoitda, birinchi navbatda, kasbga yo`naltirilgan juda ko`p qimmatli sifatlarini tarkib toptirishni tarbiyalashga yordam beradi.

Maktabda to`garak tashkil qilganda, o`quvchilarni to`garak ishlariga ommaviy

jalb etishgagina harakat qilib qolmay, balki, birinchi navbatda, nima uchun o`quvchi ushbu to`garakda shug`ullanishni hohlayotganini, bu to`garak turini tanlaganda xatoga yo`l qo`ygan-qo`ymaganligini ham aniqlash lozim.

Shu maqsadda fan o`qituvchisi, murabbiy, to`garak rahbarlari o`quv yilining boshlanishida darslarda, tarbiyaviy soatlarda bevosita o`quvchilar bilan suhbat o`tkazishi va maktab radiosи orqali o`z shogirdlariga qanday to`garaklar ishga tushishini, ular ishining mazmuni, nimadan iborat ekanligini o`quvchilar ulardan qanday bilim va ko`nikmalar olishi mumkin, ular uchun qanday amaliy ishlarni bajarishga to`g`ri keladi - ana shular haqida gapirib berishlari lozim.

O`quvchi to`garaklarni to`g`ri va bexato tanlaganini aniqlash uchun to`garaklarga yozilish bo`yicha anketalar o`tkazish maqsadga muvofiqdir. Bu anketalar o`z ichiga quyidagi ikki savolni olishi zarur:

1. Senga qanday to`garak yoqadi?
2. Nima uchun sen aynan shu to`garakda shug`ullanishni hohlading?

O`quvchilarning bu savollarga bergen javoblari kasbga qiziqishning yo`nalishini ham, to`garak tanlash sabablarini ham aniqlash imkonini beradi.

To`garak ayrim o`quvchilarning istaklarini qondira olmaganda to`garak rahbari bu o`quvchiga ishida ham umumiy, ham nazariy, ham amaliy mashg`ulotlari bo`lgan aralash to`garakni tavsiya qilishi lozim.

Har qanday to`garak ishining muvaffaqiyati undagi birinchi mashg`ulotning qanchalik ,uyushgan va qiziqarli o`tkazilishiga bog`liq.

Shuning uchun ham to`garak rahbari to`garak a'zolariga to`garakning maqsad va vazifalarini tushuntirishi, shuningdek ,ularga loyihalanadigan va yasalishi kerak bo`lgan mashinalarning harakatdagi modelini ko`rsatishi kerak.

Bularning hammasi to`garak a'zolarida mustaqil ijodiy faoliyatga qiziqish, zarur bilim va ko`nikmalar olishga ishtiyоqni o`stiradi. Misol tariqasida to`garak a'zolarining radiotexnika to`garagida to`garak a'zolarini kasb bilan tanishtirish taxminiy rejasi hamda ularda kasbga qiziqishni o`stirish metodlarini ko`rib chiqish mumkin.

O`quvchilarni qishloq xo`jaligiga qiziqishini oshirish, konkret qishloq

xo`jaligi kasbi bilan tanishtirishda yosh tabiatshunoslar to`garagi katta ahamiyatga ega. Yosh tabiatshunoslar to`garagi, odatda, o`z ishi rejasini dastur asosida tuzadi. Ish tabiatshunoslar to`garagi: fermer-sabzavotkor; gulchilar, bog`bonlar, chorvadorlar singari qator seksiyalarni o`z ichiga oladi.

Yosh tabiatshunoslarning to`garaklarda muntazam ishtirok etishi ularning kasbga qiziqishlarini rivojlantiradi. Qishloq xo`jalik ishlariga qiziqishini oshiradi, hayot yo`lini yanada ongлиroq tanlashlariga yordam beradi.

**Qiziqishiga ko`ra kulub va guruppalar.** O`quvchilarda kasbga havasni tarkib toptirish va rivojlantirishning yangi, eng samarali yo`llarini izlash, qiziqishiga ko`ra kulub va guruppalar deyiladigan yangi formaning tug`ilishiga olib keldi. Bu guruppalarga a'zo bo`lganlar yig`uvchi-chilangar, chilangar-asbobsoz, shtampovkachi-chilangar , remontchi-chilangar, santexnik-chilangar kabi turdosh ixtisoslar bilan tanishadilar.

Qiziqishiga ko`ra guruppalarni komplektlashni kasbga bo`lgan qiziqishi so`ngan o`quvchilardan tashkil qilish maqsadga muvofiq bo`ladi. Bu guruppalarda asosiy ishlar guruh rejasini tuzishda ishtirok etadigan, uning bajarilishini kuzatib boradigan, kasb haqida konsultatsiya va suhbatlar o`tkazadigan, ota-onalar va faol o`quvchilar bilan ish olib boradigan sinf rahbari zimmasiga yuklatiladi.


Qiziqishiga ko`ra guruxlarni komplektlashda o`quvchilarning jismoniy kuchi va sog`ligini hisobga olish zarur. Guruppalarga bevosita rahbarlik qilish uchun qishloq joylarida fermer xo`jaligi zootexnigi, elektrik, mexanik, fermer-asalchi, fermer-o`simlikshunos, agronom va boshqalar, sanoat korxonalarida uchastka ustasi, sex boshlig`i, uchastka brigadiri, bosh mexanik, energetik, texnolog, ishlab chiqarish muxandisi tayinlanadi.

Qiziqishiga ko`ra gurux a'zolari undagi asosiy va aralash kasblar bo`yicha materiallarni, ya'ni nashrlardan qirqib olingan professional mehnat va ishlab chiqarish ilg`orlari haqidagi fotosuratlarni, ishlab chiqarishning turli masalalari bo`yicha statistik ma'lumotlar, xalq xo`jaligi turli sohalarining taraqqiyotini ko`rsatadigan sxema diagrammalarni hamda mazkur iqtisodiy tumanning ishchi kadrlarga bo`lgan ehtiyoji haqidagi ma'lumotlarni yig`ishlari lozim. To`plangan

materiallar «Mening sevgan kasbim» deb nomlangan maxsus stendga joylashtiriladi.

Biroq qiziqishiga ko`ra guruxlarning faoliyati materiallar to`plash bilan cheklanib qolmaydi. Guruxlarda e'tibor ko`proq ixtisoslar bo`yicha o`quvchilarning amaliy-faoliyatiga, ularning mehnat mazmunini anglashlariga, asosiy mehnat usullarini egallashlariga qaratilmog`i lozim. Qiziqishiga ko`ra guruxlarda ishning bunday tashkil qilinishi uning a'zolari o`rtasida kasbga qiziqishni tarkib toptirishni ta'minlaydi.

Qiziqishga ko`ra klublar ishining mazmuni ham qiziqishiga ko`ra guruxlar ishining mazmuniga o`xshab ketadi. Biroq klublarda bajariladigan ish hajmi va unga qatnashuvchilar soni guruxlarnikidan ancha ko`proq bo`ladi. Ular orasidagi asosiy farq ham shundan iboratdir.



4- rasm. Qiziqish, moil va qobiliyatlarning kasb tanlashga ta'siri.

Kasbga qiziqishni rivojlantirish formasiga misol tariqasida: «Yosh temir yo`lchilar kulubi», «Yosh quruvchilar kulubi», «Yosh menejerlar kulubi» va hokazolarni kiritish mumkin. Qiziqishiga ko`ra kulublar turli xil maktablardan juda

ko`p o`quvchilarni o`ziga qamrab olgan.

Kulublarda kasblarni o`rganish va kasbga qiziqish metodlari qiziqishiga ko`ra guruhlarniki bilan bir xil bo`ladi. Qiziqishiga ko`ra kulublarda kasbga oid axborotlar to`plash uchun, ishda tajriba almashish hamda ishchi kasbi haqida bilimlarni tashviqot qilish uchun yaxshi sharoitlar yaratilgan.

**Kasblar va kasblarga qiziqish haqida referatlar.** O`quvchilar orasida bunday ishlarni amalga oshirishdan maqsad kasb bilan yaqinroq tanishtirish va mehnatning muayyan bir turiga bo`lgan qiziqishni kuchaytirishdan iboratdir.

Mehnat ta'limi dasturlarida maktabda o`quvchilarga qator kasblar hamda metall va yog`ochga ishlov berish texnologiyasi, xizmat ko`rsatish mehnati, qishloq xo`jaligi ixtisoslari bilan tanishish imkonini beradi.

Biroq, bu kasblar mazmunini to`la o`rganish uchun bu ma'lumotlar yetarli emas. Shuning uchun ham qandaydir aniq kasbga muayyan darajada havasi bo`lgan o`quvchilarga referat temalarini taklif etish zarur.

Mexanizatorlik kasbi bo`yicha referatlarning taxminiy rejasi quyidagicha bo`lishi mumkin:

1. Sen mexanizator kasbini qanday tasavvur qilasan?
2. Bu kasb senga nima uchun yoqib qoldi?
3. Mustaqillikka erishgandan avval qishloq xo`jaligi mexanizatsiya bilan qanday ta'minlangan edi va hozir qanday?
4. Fermer xo`jaliklarda qanday qishloq xo`jaligi mashinalaridan foydalilaniladi, mamlakatimizda qishloq xo`jalik texnikasi taraqqiyotining istiqbollari qanday?
5. Mexanizator mehnatining mazmuni nimadan iborat?
6. Qayerda va qaysi o`quv yurtlarida bu kasbni egallash mumkin? O`qish sharoitlari va kelgusidagi istiqboli.
7. Keljakda sening rejalaring qanday?

Mazkur kasbga doir referat uchun materiallar tayyorlash va yig`ish, uni turli qishloq xo`jalik mashinalarida ishlab turib parallel holda o`rganish o`quvchilarga bu kasbni yaxshi bilishnigina emas, balki unga bo`lgan barqaror

qiziqishni tarkib toptirish imkonini ham beradi.

### **2.3 Kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha o'quv-metodika xonasining faoliyatini tashkil etish va unga rahbarlik qilish**

Maktab kasbga yo'naltirish xonaga umumiy rahbarlikni, odatda, direktor va uning o'quv-tarbiya ishlari bo'yicha o'rinnbosari amalga oshiradi (2-rasm).

Kasb-hunarga yo'naltirishlarini bevosita rejalashtirish va o'tkazish uchun kasb-hunarga yo'naltirish xona bazasida maktab direktori pedagogik xodimlar orasidan kasb-hunarga yo'naltirish o'quv-metodik xona rahbarini tayinlaydi.

Xona rahbari muntazam o'z malakasini oshirishi, kasbga yo'naltirish bo'yicha ilg'or tajribani doimo o'rganib borishi va umumlashtirishi kerak.

Xona rahbari qo'yidagilarni bilishi kerak:

- maktabda o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish tizimi;
- iqtisodiyot asoslari, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etish;
- O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi asoslari;
- mehnat qonunchiligi;
- pedagogika va psixologiya asoslari; mehnat ta'limi va tarbiyasi metodikasi;
- mehnat ta'limi va kasb tanlash masalalari bo'yicha xalq maorifining yuqori organlari nashr etadigan o'quv-metodik xujjatlar.
- iqtisodiyot asoslari, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etish;
- O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi asoslari;
- mehnat qonunchiligi;
- pedagogika va psixologiya asoslari; mehnat ta'limi va tarbiyasi metodikasi;
- mehnat ta'limi va kasb tanlash masalalari bo'yicha xalq maorifining yuqori organlari nashr etadigan o'quv-metodik xujjatlar.

Xona rahbari o'z faoliyatida o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar, kasb-xunar maktabi, baza va boshqa korxonalar (tashkilotlar) xodimlaridan iborat faollarga tayanadi.

Xona rahbari maktabning kasb-hunarga yo'naltirishini rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilishga javob beradi. Korxonalar va kasb-hunar maktabiga kasb-

hunarga yo'naltirish bo'yicha birlgilidagi ishini koordinatsiya qiladi. U yig'ilishlarni, ishchilar va kasb-hunar maktabi xodimlari bilan uchrashuv kechalarini tayyorlaydi va o'tkazadi. Korxonalar va kasb-hunar maktabiga kasb tanlash ekskursiyalarini uyushtiradi, buning uchun maktab pedagogik jamoasini jalg qiladi, maktab ma'murayati va pedagogik jamoasi yordamida kasb-hunarga yo'naltirish masalalari bo'yicha fakultativ mashg'ulotlar tashkil qiladi, bevosita o'quv jarayoni va o'qishdan tashqari vaqtida kasb-hunarga yo'naltirishishi yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqish va uni qo'llanishda qatnashadi.

O'quvchilarning muayyan kasblarga qiziqish va moyilliklarini shakllantirish jarayonini o'rghanish maqsadida maktab o'quvchilariga vaqt-vaqt bilan anketa tarqatadi, o'qituvchilar o'quvchilar va ularning ota-onalariga maktab bitiruvchilarini kasb-hunar maktabiga yo'naltirish masalalari bo'yicha muntazam ravishda spravka-axborot beruvchi konsultatsiyalar o'tkazib boradi.

O'rta maktablar bitiruvchilarini kasb-hunar maktabiga yo'naltirish tuman shtabi ishida qatnashadi. Maktab ma'muriyati bilan birlgilidagi har bir bitiruvchi qaysi kasb-hunar maktabiga joylashganligi yoki akademik litseyga kirganligi natijasini yakunlaydi.

Maktab kasb-hunarga yo'naltirish o'quv-metodika xonaning rahbari qo'yidagi huquqlarga ega:

- maktab kasb-hunarga yo'naltirishkengashining tarkibiga kirish;
- maktab kengashida maktabdagi kasb-hunarga yo'naltirishni yaxshilash yuzasidan takliflar kiritish, o'tkazilayotgan tadbirlarning bajarilishi uchun javobgar shaxs faoliyatiga baho berish;
- rahbar materiallar bilan, maktabning xizmat, ishlab chiqarish va o'quv xujjatlari bilan tanishish;
- maktab direktori bilan kelishgan holda maktabda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha ishlab chiqiladigan xizmat va metodik xujjatlarni imzolash;
- o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish sohasidagi aktiv faoliyati uchun o'qituvchilarni va boshqa xodimlarni rag'batlantirish yoki ishdagi kamchiliklari uchun jazolash haqida maktab direktoriga takliflar taqdim qilish.

Maktab kasb-hunarga yo'naltirish o'quv-metodik xona rahbari qo'yidagilar uchun javobgardir:

- maktab o'quvchilari bilan o'tkaziladigan kasb-hunarga yo'naltirish tadbirlarini nazorat qilish, ularning sifati va samaradorligi;
- kasb-hunarga yo'naltirish xonadagi o'quv-metodik xujjalalar, ulardan pedagoglarning o'z vaqtida foydalanishi, ko'rgazmali qo'llanmalar va ta'limning texnik vositalariniig to'g'ri saqlanishi;
- maktabning kasb-hunarga yo'naltirish kengashida ish yuritishning ahvoli;
- kasb-hunarga yo'naltirishbo'yicha kelayotgan adabiyotlar va boshqa materiallarni hisobga olish;
- o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish hisobot hujjatlarini to'g'ri to'zish.

Xona rahbari har yili Xonaning kasbga yo'naltirishga doir ish rejasini to'zib chiqadi. Bunda uning kasb-hunarga yo'naltirish vazifalarining o'ziga xos xususiyati hisobga olinadi. Xonaning ish rejasи maktabning kasb-hunarga yo'naltirish rejasи o'rniغا to'zilmasligi kerak. U ijrochilar bilan kelishiladi va kasb-hunarga yo'naltirish kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Rejaga faqat Xona bazasi yoki Xona mudirining bevosita rahbarligida amalga oshiradigan bo'limlar va tadbirlargina kiritiladi. Xona vazifalari va funksiyalaridan kelib chiqib, reja quyidagi bo'limlarni o'z ichiga olishi kerak:

- «O'quvchilar o'tkazadigan ommaviy tadbirlar»;
- «O'quvchilar bilan olib boriladigan individual ishlar»;
- «Maktab pedagogik kollektivi bilan olib boriladigan metodik ishlar»;
- «Ota-onalar bilan olib boriladigan metodik ishlar»;
- «Maktab, baza korxonasi, kasb-xunar maktabining birgalikdagi ishi».

«O'quvchilar o'tkazadigan ommaviy tadbirlar» bo'limiga Xona rahbari Xona bazasiga o'tkazish maqsadga muvofiq bo'lган tadbirlarni tanlab oladi. Bunday tadbirlarga avvalo kasb tanlash asoslari bo'yicha fakultativ mashg'ulotlar o'tkazish kiradi. Rejada mavzular, mashg'ulot kunlari va mas'ul ijro etuvchilar ko'rsatiladi. Sinf rahbarlari bilan kelishgan holda Xona ishi planiga kasb tanlashga bag'ishlangan sinf soatlari kiritiladi. Xona rahbari va sinf rahbari oldindan sinf

soatini kelishib oladilar va uni birgalashib tayyorlab, o'tkazadilar. Sinf soatlari Xona bazasida o'quvchilarning yosh xususiyatlari xisobga olib, V sinfdan boshlab o'tkazilishi mumkin. Sinf rahbarlari Xona rahbari bilan birgalikda sinf soatlari qanday o'tkazish senariylarini yozadilar, bu senariylar keyin Xonada saqlanadi va shu xildagi mashg'ulotlar tayyorlanadigan metodik materialga asos bo'lib hisoblanadi.

Xona rahbari adabiyot o'qituvchisi va kutubxonachi bilan birgalikda. Yozuvchilarning asarlari bo'yicha V-VII, VIII—IX, sinf o'quvchilari uchun o'quvchilar konferensiyalari, shuningdek «Kasbni yoqlash» konkurslarini o'tkazishni rejalashtiradi; yoshlar komiteti bilan kelishib kasb tanlashga bag'ishlangan yoshlar yig'ilishlari o'tkazish, yoshlarning axborot materiallari yig'ish va kasb-hunarga yo'naltirish xonani jihozlashda qatnashuvi hamda yoshlar aktivi Xona rahbariga ko'rsata oladigan boshqa xil yordam turlarini rejalashtiradi.

«O'quvchilar bilan olib boriladigan individual ishlar» bo'limida o'quvchilarga anketa tarqatish, ma'lumot-axborot berish, psixologik-pedagogik va metodik kasb konsultatsiyalari, nazarda tutiladi. Anketalashtirishni Xona rahbari tekshirilayotgan sinfning sinf rahbari bilan birgalikda o'tkazadi, anketa so'rovlari natijalari sinf rahbariga ma'lum qilinadi, kasb-hunarga yo'naltirish kengashi majlisida aytib beriladi. Axborot berish tipidagi individual konsultatsiyalarini har bir sinf o'quvchilari (VIII sinfdan boshlab) uchun o'tkazish maqsadga muvofiqdir, buning uchun haftaning yoki har oyning bir kunini ajratish kerak. Psixologik-pedagogik va meditsina tipidagi konsultatsiyalar sinf rahbari va maktab vrachi bilan birgalikda planlashtiriladi. Ular uchun ham VII sinfdan boshlab har bir sinf uchun belgilangan muayyan bir kun ajratiladi. Rejada individual konsultatsiyalar o'tkazuvchi pedagogning familyasi ko'rsatiladi.

«Maktab pedagogika jamoasi bilan olib boriladigan metodik ishlar» bo'limi o'quvchilar bilan kasb-hunarga yo'naltirishlarini o'tkazishda pedagoglarning metodik saviyasini oshirishga qaratilgan tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Rejada kasb-hunarga yo'naltirish ishi bilan shug'ullanuvchi turli kategoriyadagi xodimlar: sinf rahbarlari, predmet o'qituvchilari, bazm

korxonalarining vakillari uchun tadbirlar nazarda tutiladi. Bunday tadbirlarga leksiyalar, ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminar mashg‘ulotlari kiradi. Leksiyalar har oyga bir marta rejalashtiriladi, ilmiy-amaliy konferensiyalar va seminar mashg‘ulotlarini esa yiliga bir marta o‘tkazish kifoya.

«Ota-onalar bilan olib boriladigan metodik ishlar» bo‘limiga maktabning kasb-hunarga yo’naltirish bazasida o‘tkaziladigan tadbirlar kiradi. Ularinng shakllarini yildan-yilga o‘zgartirib turgan ma’qul. Ular turli-tuman bo‘lishi mumkin: ota-onalar lektoriylari, ota-onalar uchun konferensiyalar, kasb tanlash masalalari bo‘yicha «Pedagogik o‘qishlar» va hakazo. Rejada ota-onalar uchun ular farzandlarining kasb tanlash masalasi bo‘yicha individual konsultatsiyalar o‘tkazish kunini nazarda, tutish lozim, bu konsultatsiya kunini ota-onalar yig‘ilishiga to‘g‘rilash mumkin.

Aniq rejalashtirilgan ishlar o‘tkaziladigan tadbirlar kompleksining samaradorligini oshiradi. Bunga qo‘yilgan maqsadning ravshanligi va vazifalarni aniq belgilash hisobiga erishiladi. Bu vazifalar eng maqsadga muvofiq vositalar, shakl va usullar yordamida hal etiladi.

Kasb-hunarga yo’naltirish xona kasb-hunarga yo’naltirish metodik amaliy ishlar organi sifatida axborot markazi vazifalarini bajaradi. Bu yerda kasbga yo’naltirash bo‘yicha amaliy ishlar uchun axborot materiallari yig‘ib boriladi va saqlanadi; Xona kasb tanlash masalalari va ishga joylashish masalalari bo‘yicha o‘quvchilar hamda ota-onalarga xizmat ko‘rsatuvchi spravka-konsultatsiya markazi vazifasini bajaradi; o‘quvchilar bilan kasb tanlash bo‘yicha mashg‘ulotlar, shuningdek ota-onalar, pedagoglar va kasb-hunarga yo’naltirish faoliyatida ishtiroy etadigan boshqa kishilar bilan ishlar olib boriladi. Kasb-hunarga yo’naltirish xona ishining mazmuni uning vazifalaridan kelib chiqib qo‘yidagilarni o‘z ichiga oladi:

- o‘quvchilar bilan metodik ish olib borish (leksiyalar, seminarlar, pedagogik o‘qishlar, mustaqil o‘qishda yordam ko‘rsatish va hokazo);
- o‘quvchilar bilan kasb tanlash asoslari bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazish (fakultativlar, kasb-hunarga yo’naltirish bo‘yicha sinf soatlari va hokazo);
- o‘quvchilarning ishlab chiqarish ilg‘orlari, faxriylari, maktabni bitirib chiqib

ishchi bo‘lganlar va boshqalar bilan uchrashuvlarini tashkil etish;

- kasb-hunarga yo’naltirish bo‘yicha ommaviy tadbirlar uyuştirish komsomol yig‘ilishlari, tematik kechalari, yig‘ishlar, munozaralar, o‘quvchilar konferensiyalari);

- o‘quvchilar texnika ijodiyoti, o‘quvchilarning ijtimoiy foydali va unumli mehnati mahsulotlari ko‘rgazmalarini tashkil qilish

- o‘quvchilar bilan yakka tartibda ishlar olib borish (xalq ho‘jaligining kadrlarga ehtiyoji masalalari bo‘yicha ma’lumot beruvchi konsultatsiyalar, ishga joylashish tartibi, kadrlar tayyorlash yo‘llari va shakllari, mehnat qonunchiligi va hokazo);

Xonaning vazifalari va ish mazmunini ishlab chiqishda maktab o‘quvchilarini kasb-hunarga yo’naltirish bo‘yicha pedagoglar maktabining ilg‘or ish tajribasini o‘rganish va umumlashtirish.

Kasb-hunarga yo’naltirish sistemasining asosiy komponentlari qo‘yidagilardan iborat: kasb haqida ma’lumot berish (kasb axboroti), maktab o‘quvchilarining «kuchini sinab ko‘rish»ga faol kirishishi, kasb konsultatsiyasi va kasbga kuniktirish (5-rasm).

Xona bazasida birmuncha muvaffaqiyatli olib borish mumkin bo‘lgan kasb tanlashning asosiy yo‘nalishlari; kasb haqida ma’lumot berish va kasb konsultatsiyasidir.

					
Iskana	Bolta	Lobzik	Charx	Yog’ochga ishlovberuvchi dasgoh	Yog’och to’qmoq

5-rasm. O‘quv ustaxonalarida ishlatiladigan asbob-uskinalar.

Kasb haqida ma’lumot berish—o‘quvchilarni turli xil mehnat bilan,

kasblarning o‘ziga xos xususiyatlari, rivojlanish tendensiyalari, mamlakat va mazkur iqtisodiy tuman xalq ho‘jaligining kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlari bilan tanishtirishdir.

Bu jarayonda o‘quvchilar kasblar olamida to‘g‘ri yo‘l topishga imkon beruvchi bilimlarni egallaydilar va ob’ektlarga o‘zлari baho berish asosida qat’iy qarorga keladilar.

Kasb haqida ma’lumot berish mакtabning kasb tanlash ishidagi birmuncha ishlab chiqilgan yo‘nalishlaridan biridir. Ko‘pincha kasb haqida ma’lumot berish ishlari maktab o‘quvchilari iloji boricha ko‘proq kasblar bilan (dunyoda 40 mingdan ortiq kasb bor) tanishtirish asosida bo‘lib, xalq xo‘jaligiga ko‘proq zarur kasblarga e’tibor kuchaytiriladi. Biroq kasb xaqida ma’lumot berish amalda ba’zan kasblar to‘g‘risida duch kelgancha ma’lumotlar berishga aylanib qolmoqda.

Kasb haqida tartibsiz ma’lumot berishdan qochish uchun o‘quvchilar oladigan barcha mehnatlar to‘g‘risidagi bilimlarni sistemaga solish lozim. Buning uchun mehnat predmeti bo‘yicha kasblar klassifikatsiyasidan foydalanish mumkin.

Bunday klassifikatsiya prinsipini asos qilib olib, o‘quvchilarni kasblarning bir muncha keng davrasi bilan tanishtirish mumkin. Bunday yondashish o‘quvchilarga faoliyatning u yo bu sohasiga kiruvchi kasblarni mustaqil ravishda tahlil etish, kasbdagi eng muhim tomonlarni ajratib olish, mehnatning predmeti, maqsadlari, qurollari va sharoitlarini hamda odamlar oldiga kasbning muayyan tipi qanday talablar qo‘yishini anglab olish imkonini beradi.

Kasb haqida ma’lumot berish o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda olib borilishi kerak.

Kasb konsultatsiyasining maqadi o‘quvchilarga kasb tanlashda yordam berishdan iborat bo‘lib, ularning qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatları va boshqa xususiyatlarini o‘rganishga tayanadi va qo‘yidagi uch yo‘nalishda amalgalashiriladi: spravka-axborot berish ishlari, psixologik-pedagogik masalalar bo‘yicha konsultatsiya va tibbiy (vrachlik) kasb konsultatsiyasi.

Kasb konsultatsiyasi, odatda, individual xarakterda bo‘lib, o‘quvchilarda kasb tanlash paytida vujudga keladigan qiyinchiliklarni nazarda tutadi. Tabiiyki, har bir

o‘quvchiga ham individual konsultatsiya berish shart emas. Biroq bunday konsultatsiya zarur bo‘lganlar bilan jiddiy ravishda yakka tartibda ish olib borish kerak.

Shu narsa aniqlanganki, maktab o‘quvchilarining kamida 50% i individual kasb konsultatsiyasiga muhtojdir. Bularga qo‘yidagilar kiradi:

- 1) u yo bu sabab bilan mustaqil kasb tanlay olmagan o‘quvchilar;
- 2) ota-onalari bilan ziddiyat paydo bo‘lgan o‘quvchilar;
- 3) o‘zining tanlagan kasb yo‘lining to‘g‘riligini isbot qilish istagida bo‘lgan o‘quvchilar;
- 4) o‘sib-o‘lg‘ayishi o‘zgacharoq bo‘lgan va xulq-atvori boshqacharoq o‘quvchilar.

Kasb konsultatsiyasi VII—IX sinflarning o‘quvchilari bilan o‘tkaziladi, chunki ular konkret kasb tanlash zarurati bo‘lgan vaziyatga tushadilar, lekin ko‘pincha bu muammoni mustaqil hal eta oladilar.

Axborot beruvchi konsultatsiya o‘quvchilarning mehnat va kasb faoliyati to‘g‘risidagi bilimlarini kengaytirish, maxsus ma’lumot olish va ishga joylashish imkoniyatlari xususida konkret ma’lumotlarni bildirishga qaratilgan. Axborot beruvchi konsultatsiyani Xona bazasida bevosita kasb-hunarga yo’naltirish xona rahbari o‘tkazadi. Buning Xonada o‘quv yurtlariga qabul qilish qoidalari to‘g‘risidagi adabiyotlar bo‘lishi kerak:

Tibbiy-kasb konsultatsiyasini V sinfdan boshlab o‘tkazish lozim, chunki xuddi ana shu yoshda qat’iy bilimga qiziqish paydo bo‘ladi, bu qiziqish mustahkamlanib keyinchalik kasb qiziqishiga aylanishi mumkin. Agar o‘quvchi salomatligida o‘zi qiziqayotgan kasbni egallahsha halaqit berishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlar sodir bo‘lsa, bu haqda uni oldinroq ogohlantirib qo‘ygan ma’qul. Odatda, agar qiziqish qat’iy bo‘lib qolganda, boshqa kasbga qayta yo‘naltirishni o‘smir yomon qabul qiladi, unda o‘zining yetuk emasligi hissi paydo bo‘lishi mumkin. Bu holda vrach va pedagogning ishi juda qiyinlashadi. Shuning uchun o‘quvchida dispanserlashtirish jarayonida sog‘lig’ida nuqson aniqlanishi bilanoq, maktab vrachi kasb-hunarga yo’naltirish xona mudiri bilan birga o‘quvchi bilan

konsultatsiya o'tkazishi lozim. Vrachning vazifasi qanday kasblar nima uchun unga to'g'ri kelmasligini o'quvchiga tushuntirib berishdan iborat. Kasb konsultanti o'quvchiga kasblar juda ham ko'p va xilma-xil ekanligini va sog'lig'ida kamchilik bo'lishiga qaramay o'quvchi o'zi uchun hamma vaqt ko'ngliga yoqadigan ish topa olishi mumkinligini ko'rsatib berishi kerak.

Sog'lig'ida nuqson (topilgan har bir o'quvchi uchun kasb konsultatsiyasiga oid meditsina kartochkasi ochiladi, unga o'quvchining sog'lig'i to'g'risidagi hamma ma'lumotlar yozib qo'yiladi, qaysi kasblar to'g'ri kelmasligi aytilib, to'g'ri keladigan kasblarni tanlash yuzasidan tavsiyalar beriladi

Kasb-hunarga yo'naltirish xonanинг ko'rsatib o'tilgan ishlari uning maktabda kasb-hunarga yo'naltirish markazi sifatidagi hamma imkoniyatlarini ham qamrab olgan emas, lekin bu yo'nalishlar o'quvchilar bilan ishslashda asosiy yo'nalishlar hisoblanadi. Qo'llanmaning keyingi bo'limlarida o'quvchilar bilan ommaviy yakka tartibda ishslash shakllari hamda Xonanинг boshqa funksiyalari birmuncha, to'liq olib berilgan.

Kasb-hunarga yo'naltirish xonanинг maktabdagi eng asosiy vazifalaridan biri kasb tanlash bo'yicha maktabda metodik ish olib borish, bu ishni tuman va shahar miqyosida o'tkaziladigan shunday ish bilan kelishib qilishdan iboratdir.

Maktab pedagogik kollektivi bilan olib boriladigan metodik ishlar

Maktab pedagogik kollektivi bilan metodik ishlar olib borish Xonanинг metodik ish rejasini asosida amalga oshiriladi.

Uni to'zishda sinf rahbarlari va metodik birlashmalar planlarini hisobga olish, bu planlarni kelishish va asosiy vazifani—maktab o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish sifatni oshirish vazifasini hal etishga qaratish kerak.

Rejada maktabda ishlovchilarning hamma toifasi (maktab direktori, sinfdan tashqari ish tashkilotchilari, predmet o'qituvchilari, maktab vrachlari, kutubxonachilar va boshqalar) uchun umumiy xarakterdagi tadbirlar va ko'rsatilgan xodimlar ixtisoslashuvini hisobga olgan tadbirlarni nazarda tutish maqsadga muvofiqdir. Bu tadbirlarga qo'yidagilar kiradi: leksiyalar, ilmiy-amaliy konferensiyalar, o'quvchilarning mehnat tayyorlarligi ixtisoslari bilan va o'quv-

ishlab chiqarish; kombinatlarida o‘rganiladigan kasblar bilan, o‘quv-ishlab, chiqarish kombinatlarining moddiy bazasi bilan tanishish bo‘yicha ekskurskyalar va boshqalar.

Mexnat ta’limi o‘qituvchilar bilan ishlashga alohida e’tibor berish kerak, chunki ularning mактаб о‘quvchilarida ishchi kasblariga qiziqishni shakllantirishga, mehnatga ongli munosabatda bo‘lishga, muayyan mehnat usullari va ko‘nikmalarini egallahsga bevosita qaratilgandir. Maktabda mehnat ta’limi o‘quvchilar bilan kasb tanlash ishlarini o‘tkazish uchun teng imkoniyatlar ochib beradi. O‘quvchilarni mehnat va ixtisosliklarning konkret turlari bilan tanishtirish imkonini beradi, bu mehnat turlariga qiziqish uyg‘otadi, unumli mehnat jarayonida o‘quvchilar turli mehnat faoliyati sohalarida o‘z kuchlarini sinab ko‘ra oladilar.

Mehnat ta’limining roli hozirgi vaqtida ancha oshib bormoqda, chunki mактаб islohotining asosiy yo‘nalishlaridan kelib chiquvchi vazifalarga muvofiq o‘quvchilar to‘liqsiz o‘rta maktabni tugatish vaqtiga ongli ravishda o‘zil-kesil kasbni bilim olishni davom ettirish uchun o‘quv yurtini tanlashga tayyorlanishlari, o‘rta maktabni tugatish vaqtiga kelib esa muayyan kasbni egallahslari uchun kasbhunar maktabiga topshirishlari kerak. Bu har bir yosh yigit-qiz mehnat faoliyatini boshlaguncha ixtisoslikka ega bo‘lishi kerakligini anglatadi.


Mehnat ta’limi darslarida kasb-hunarga yo‘naltirish ko‘p masalalarni o‘z ichiga oladi va darslarni planlashtirishga puxta o‘ylab yondashishni talab qiladi. O‘qituvchi kalender ish rejani tuzayotganda o‘quv materiali bilan birga kasb tanlash masalalarini ham albatta qo‘sadi, xar bir aniq mavzu bo‘yicha ularning o‘rni va mazmunini belgilaydi. O‘qituvchi dars mavzusiga muvofiq kasblar va ixtisosliklar to‘g‘risida ma’lumot beradi, kasb tanlashga oid filmlarni namoyish qiladi, ishlab chiqarish ilg‘orlari to‘g‘risida hikoya qilib beradi, o‘quvchilarni ishlab chiqarish kombinati korxonaga ekskursiyalarga tayyorlaydi, ular bilan birga bu ekskursiyalar natijalarini muhokama qilinadi va hokazo. Mehnat ta’limi o‘qituvchilarining kasb-hunarga yo‘naltirish tajribalarini mehnat ta’limi o‘qituvchilar seminarlarida ko‘rib chiqish maqsadga muvofikdir. Bu seminarlarga o‘quv ustalari taklif qilinadi, bu hol ular kuch-g‘ayratini koordinatsiyalash va

maktabda mehnat darslari davomiyligini ta'minlashga imkon beradi.

Maktabning kasb-hunarga yo'naltirish o'quv-metodika Xonasi maktab va ishlab chiqarish jamoasining bиргаликдаги faoliyatini uyushtirishda katta rol o'ynaydi. Xona orqali maktab va korxona faoliyati koordinatsiya qilib boriladi, korxonaning mehnat shuhrati muzeyi, shuningdek korxona va kasb-hunar maktabi Xonalari bilan aloqa yo'lga qo'yiladi.

Maktab kasb-hunarga yo'naltirish o'quv-metodika xonaning mudiri baza korxonasi va kasb-hunar maktabi bilan bиргалашив umumiy tadbirlar o'tkazish rejani tuzadi, ana shu reja asosida keyin maktab xona, kasb-hunar maktabi xona va korxona plani ishlab chiqiladi.

Reja tuzayotganda kasbga yo'naltirishda maktab va ishlab chiqarish jamosi faoliyati davomida ishlab chiqilgan asosiy yakunlashlar hisobga olinishi kerak. Ish umuman qo'yidagi yo'nalishlar bo'yicha olib boriladi:



6-rasm. Maktab o‘quvchisining kasb tanlashdagi mo‘jallari.

1. Maktab atrofidagi korxonalar to‘g‘risida bor ma’lumotlardan foydalanish asosida o‘quv predmetlarini o‘qitishda politexnik asoslarni chuqurlashtirish, o‘quv jarayoni va sinfdan tashqari ishlarda qatnashishga korxona va hunar-texnika bilim yurti xodimlarini jalg etish. Bu ish xalq xo‘jaligi talablaridan o‘quvchilarga habardor qilishni yaxshilashga da’vat etilgan; o‘quvchilarining tugaraklar va fakultativlardagi ijodiy ishini kuchaytirishi kerak; professiografik material, ishlab chiqarish va texnologik jarayonlar bayon etilgan materiallar va hokazolarni to‘plashda maktabga yordam berishi kerak.

2. Mehnat ta’limi, texnika ijodiyoti, unumli mehnatni uyuştirish yo‘li bilan maktab o‘quvchilarini mehnat jamoalarining ishlab chiqarish hayotiga jalg qilish. Bu faoliyat korxona buyurtmalarini bajarish bilan bog‘langanligi tufayli faqat bilim va ko‘nikmalarning emas, yuksak uyushqoqlik, intizom, mas’uliyatni ham talab qiladi. Bu o‘rinda belgilangan ish rejimiga rioya qilish, ishlab chiqarish normalarini bajarish zarur. Bularning hammasi yoshlarga (o‘smirlarga) o‘z imkoniyatlarini sezish va jamiyat boyligini yaratuvchi» sifatida kerakligini anglash imkonini beradi.

3. O‘quvchilarini korxona va hunar-texnika bilim yurtidagi ijtimoiy – siyosiy va madaniy-ommaviy ishlarga jalg qilish va bu bilan maktab, korxona va kollej, tashkilotlari o‘rtasida yaqin aloqa o‘rnatish. Bunda o‘quvchilar kattalarning sotsial tajribasidan o‘rganish, mehnat kollektivlari va hunar-texnika bilim yurtlarining ko‘p qirrali hayotining turli tomonlarini bilib borish imkoniga ega bo‘ladilar.

4. Kasb tanlash masalalari bo‘yicha sinfdan tashqari tadbirlar o‘tkazish va o‘quvchilarga konsultatsiyalar berishga korxona mutaxassislarini jalg etish.

5. Bevosita korxona, maktab va o‘quvchilar turar joylarida ota-onalar bilan ishslash.

Ko‘rsatilgan yo‘nalishlarga muvofiq ishslash kasbga yo‘naltirishga kompleks yondashishni amalga oshirish imkonini beradi: o‘quvchilarining turli xil faoliyat ko‘rinishlarida (o‘qishda, unumli mehnatda, jamoat ishida) sotsialistik jamiyat mehnat kishining professional qiziqishlari va hislatlarini shakllantiradi.

## XULOSA

O'quvchilarni ongli ravishda to'g'ri kasb hunarni egallashlarga erishish jamiyat taraqqiyoti, iqtisodiyotni rivojlanishi va inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish jarayonida qo'yiladigan ishlar amalga oshirildi:

1. Kasb hunarga yo'naltirishga oid ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari va maktab tajribasi o'rganildi;
2. Umumiy o'rta maktablarda kasb hunarga yo'naltirish tizimi tahlil qilindi;
3. Mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilarga kasb hunarga yo'naltirishning tashkiliy shakllari va metodlari aniqlandi;
4. Mehnat ta'limi bo'yicha darsdan tashqari vaqtarda kasb hunarga yo'naltirish mazmuni ishlab chiqildi;
5. Kasb - hunarga yo'naltirishda o'quv-metodik xonasini tashkil qilish va unga rahbarlik qilish bo'yicha tavsiyalar berilgan;
6. Kasb - hunarga yo'naltirish o'quv metodik xonasi mudirining burchi va vazifalari, maktab, oila va ishlab chiqarish hamkorligi tashkil etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish uchun juda katta imkoniyatlar mavjud. Buning uchun tadqiqot ishlarini davom ettirish, magistrlik dissertatsiyasida amalga oshirish niyatimiz bor.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. I.A. Karimov Barkamol avlod- O‘zbekiton taraqqiyotining poydevori. T. Sharq. 1998. - 352b.
2. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishlari bo'yicha "Harakatlar strategiyasi". –T. 2017.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T. O‘zbekiston 1997. -39b.
4. Ta’lim to‘g‘risida Qonun T.O‘zbekiston 1997.- 39b.
5. S.U. Kalyuda “Ishlab chiqarish asoslari. Kasb tanlash kursi metodikasi” T. O’qituvchi 1989.
6. N.Muslimov, R. Mulaaxmatov “Kasb tanlashga yo’llash o’quv qo’llamasи” T. 2007.
7. O’.Q.Tolipov “O‘quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirish tizimi” Toshkent-2001
8. Kadrlar tayyorlash milliy modeli. T. O‘zbekiston 1998.-31b.
9. N.A. Muslimov SH. S. Sharipov va b. Mehnat ta’limi, Kasb-hunarga yo’naltirishni o‘qitish metodikasi T. O’qituvchi. 2009.-246b.
10. А.Д. Сазанов, В.Д. Симоненко “Профессиональная ориентация учащихся” Москва “Просвещение” 1988
11. O’.Q. Tolipov Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. T. Fan.2006 – 262 b.
12. A.Yusupov Ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo’llash. T. -2007.-47b.
13. A.O. Abduquddusov Kasb –hunar pedagogikasi. T. -2014.-314b.
14. M. Ochilov YAngi pedagogik texnologiya Qarshi. 2000.- 80b.
15. N.S. Chistyakova Uchebno-metodicheskiy Xona professionalnoy ofieptatsii. M: Proev. 1992.-117s
16. P.T. Magdumov Sistema professionalnoy ofieptatsii. T. Oqituvchi. 2001. -126 b.
17. Internet ma'lumotlari:  
<http://www.avto.ru>                    <http://www.carmarket.ru>  
<http://www.carpoint.com>                <http://www.auto.msk.ru>

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
СОГЛИКНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ  
ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ  
МИРЗО УЛУГБЕК НОМИДАГИ  
ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ

## **ИНТЕЛЛЕКТУАЛ САЛОҲИЯТ - ТАРАҚҚИЁТ МЕЗОНИ**

**илемий мақолалар тўплами  
9 - сон**

**Тошкент-2018**

activity studies. Evaluation of abstraction affidavit and analysis online writing appearance on present analysis comments, obviously, this blazon of studies cans no best implemented attributable to ethical reasons.

#### **REFERENCES:**

1. Dixit Y, Wagle A, Vakil B. Patents in the Field of Probiotics, Prebiotics, Synbiotics: A Review. J Food Microbiol Saf Hyg. 2016;1:111.
2. Dawson P, Northcutt J, Parisi M, et al. Bioaerosol Formation and Bacterial Transfer from Commercial Automatic Hand Dryers. J Food Microbiol Saf Hyg. 2016;1:108.
3. Shehzad K, Wajahat A, Kamal T, et al. Preservation of Mango Slices in Sucrose Solution with Various Concentrations . J Food Microbiol Saf Hyg. 2016;1:109.
4. Gómez MN, Lombar MM, Carcedo I, et al. Pathogen Persistence in Restaurant Menus: Comparison between Materials. J Food Microbiol Saf Hyg. 2016;1:104.
5. Mengual Lombar M, Gamez NM, Carcedo I, et al. Accessories of Food Handlers and Restaurant Staff as a Source for Food Contamination. J Food Microbiol Saf Hyg. 2016;1:105.
6. Pandey KR, Vakil BV. Functional Characterization of Bacteriophage Resistant Mutants of Probiotic *B. coagulans*. J Food Microbiol Saf Hyg. 2016;1:106.

**Қар ДУ ўқитувчиси:М.Ю.Суонова**

**Талаба: Ж.Хайитов**

### **ТРИКОТАЖ МАҲСУЛОТЛАРИНИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ КОРХОНАЛАРИДАГИ ХОМ-АШЁ ТУРЛАРИ**

Ўтган давр ичида мустакиллижимизни сиёсий ва иқтисодий мустаҳкамлаш борасида қатор амалий тадбирлар кўрилди. Иқтисодий соҳада мустакилликни мустаҳкамлаш бу борада жиддий ишлашни тақозо қиласи. Ҳалқимиз олдида турган вазифалардан-хом ашёмизни ўзимизда қайта ишлаб, жаҳонга тайёр маҳсулот чиқариш, аҳолининг трикотаж маҳсулотларига бўлган эҳтиёжини тўла қондириш учун

янги трикотаж корхоналарини барпо этиши, ҳозирги замон технология ва машина – ускуналарини қўллаш мавжуд корхоналарни қайта қуриб жиҳозлаш, ишлаб чиқарилаётган маҳсулот сифатини дунё стандарти талабларига кўтаришдир.

Трикотаж саноатида ишлаб чиқариладиган маҳсулот турлари хилма-хилдир. Масалан, ҳар хил турдаги пайгоҳ маҳсулотлари, устки ва ички трикотаж кийимлари, мебелларни қоплаш учун ишлатиладиган матолар шулар жумласидандир. Трикотаж машиналарида тўкув дастгоҳларидаги ишлаб чиқарилаётган матоларга ўхшашиб кам чўзилувчан ёки бўйига ва энига чўзилмайдиган матолар ишлаб чиқарилиши трикотаж усулининг афзалликларидан бири ҳисобланади.

Трикотаж ишлаб чиқаришда муваффақиятли иш олиб бориш учун, биринчи навбатда, янги трикотаж машиналарини яратиш ва трикотаж ишлаб чиқариш назарияларини мукаммаллаштириш ва бу назарияларни пухта эгаллаб, уларни амалда қўллай оладиган мутахассисларни тайёрлаш зарур. Бу долзарб масалага “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”да ҳам катта эътибор берилган.

Трикотаж маҳсулотлари ишлаб чиқариш тармоғида, маҳсулот турларининг кўпайиши бевосита, маҳсулот ишлаб чиқариш учун зарур бўлган турли тўқимачилик ипларини ишлаб чиқариш ҳамда тури ва ҳажмини узлуксиз ошириб боришини тақозо этади.

Тўқимачилик иплари, трикотаж ишлаб чиқариш тармоғида мавжуд бўлган тўкув техника ва технологиялари асосида сифатли, хушбичим, мавсумий трикотаж маҳсулотлари ишлаб чиқариш учун зарур бўлган хом-ашё (ип ва калава иплар) билан мўътадил таъминлашни асосий омилларидан бири бўлиб, ишлаб чиқариш жиҳозларидан унумли фойдаланишни таъминлайди.

Трикотаж маҳсулотлари ишлаб чиқариш тармоғида кўлланиладиган тўқимачилик иплари асосини куйидагилар ташкил этади: калава или, комплекс ип ва моно ип.

Калава или - узунликлари чекланган толаларни ўзаро кўшиб паралел эшиш ҳисобига ҳосил қилинган тўқимачилик ипидир. Комплекс ип - тола узунликлари чегараланмагац, икки ёки бир неча элементар толалардан ташкил топган, уларни ўзаро эшиш ёки толаларни бир-бирига елимлаш натижасида ҳосил бўлган иплар. Моно ип деб, бир элементдан ташкил топган, толалар узунлиги бўйича

узлуксиз бириккан, якка итдан ташкил топган кимёвий ипга айтилади. Бугунги кунда трикотаж маҳсулотлари ишлаб чиқариш корхоналаридаги тур хом-ашёлардан фойдаланилмоқда: Табиий толали калава иплар, пахта жун ва ипак.

Аралаш калава или бу табиий толаларни кимёвий толалар билан аралашмаси: вискозали пахта, капронли пахта, лавсанли пахта, ярим жун, ацеатли ипак, вискозали ипак ва хоказо; Кимёвий иплар - сунъий ва синтетик иплар

Трикотаж маҳсулотлари ишлаб чиқариш тармоғида фойдаланиладиган тўқимачилик иплари тўқимачилик иплари, тола таркибий синфига кўра, табиий ҳамда кимёвий толали калава ва ипларга бўлинади. Тўқимачилик иплари толанинг таркибига кўра ўсимлик толасидан (пахта или), ҳайвон жунидан (жун или), пилладан (ипак или), кимёвий ва сунъий толали ип ва калава ип гурухларига булинади.

Пахта калава или соф ҳолатда ёки бошқа кимёвий толалар билан аралаш ҳолатда, трикотаж ишлаб чиқариш тармоғида, маҳсулотлар ишлаб чиқариш учун кўлланиладиган хом ашёни ярмидан ортиқроқ қисмини ташкил этади.

Трикотаж буюмлар тайёрлаш технологияси усуллари бўйича бичилган, ярим мунтазам ва мунтазам турларига бўлинади. Ярим мунтазам буюмлар чети милксиз полотнолардан бичилади. Бундай буюмларнинг тана қисми кўпинча яхлит бичилган бўлиб, факат ёқа ва енг ўмизлари ўйилади. Мунтазам буюмлар деталлари аниқ белгиланган ўлчам ва шаклга мос қилиб, яхлит тўқилади. Трикотаж буюмларининг 60%ини бичилган буюмлар ташкил этади, шунинг учун куйида факат уларга хос конструктив хусусиятлар келтирилган.

Трикотаж буюмларини конструкциялаш ва моделлаштириш жараёнида чўзилувчанлик, киришувчанлик, қайишқоқлик ва технологик ишлов беришда аҳамиятли хусусиятлар эътиборга олинади.

Трикотаж буюмларнинг конструктив ечими полотнонинг чўзилувчанлик даражаси билан боғлик. Трикотаж матолар чўзилувчанлик ва деформацияга майиллик даражаси бўйича ҳамда дастлабки хом-ашё хусусияти ҳисобга олинган ҳолда қуйидаги гурухларга таснифланади:

1-гурухга кам чўзиладиган трикотаж матолар киради;

2-гурухга ўртача чўзилувчан трикотаж матолар киради;  
3-гурухга эса кўп чўзилувчан трикотаж матолар киради.

Трикотаж буюмларни конструкциялашда бу маълумотлар асос қилиниб олинади. Трикотаж матонинг чўзилувчанилиги ҳисобга оладиган тўқислик кўшимича ҳақнинг қиймати стандартларда келтирилган. Кам чўзиладиган шакл сақловчи трикотаж матолардан кийим деталларни конструкциялашда газламалардан тайёрланган буюмларга ўхшаш амалга оширилади. Кўп чўзилувчан трикотаж матолардан буюмни конструкциялашда қайишқоқлик туфайли кийим танага ёпишиб туради. Трикотаж буюмларни конструкциялаш ва моделлаштиришда полотно тури ва ранги кучли бадий ифодага эга бўлган буюмларни яратишга кенг имконият беради.

Қандай килиб трикотажни мода талабига қараб ўзгартириш мумкин?

Биринчидан, тўқилишнинг янги усулларини яратиш йўли билан эришиш мумкин, иккинчидан, унинг расми ва қомпозициясини янги бадий безатиш элементлари ҳисобидан ўзгартириш мумкин. Иккиси ҳолатда ҳам барча техник ва амалий санъат усулларини қўллаш мумкин.

Уларга: янги жихозлар, хом ашё, тўқималарни қўллаш; нусха кўчириш; босиб нақш солиши ва матоларга гул босиши; янги фактураларни яратиш, бир хил рангли ва ранғ баранг расмларнинг янги композициясини қўллаш киради.

Трикотаж ишлаб чиқаришнинг асосий ҳусусиятлари ҳаракиётда тўкув жихозларининг юқори самарадорлиги ва турли толаларга ишлов беришнинг кенг имкониятларидан иборат.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Очилов Т. А. ва б. “Тикувчилик материалшунослиги” Т., Шарқ, 2008.
2. Кукин Г.Н., Соловьев А.Н. Текстильное материаловедение М., Легпромбыт. Издат 1985.
3. Мальцева Е.П. Тўқимачилик – материалшунослиги. Т., Ўқитувчи, 1986.

<b>Jo'rayev Jasurbek</b>	
PREPARATION OF PAPERS FOR INTERNATIONAL JOURNAL OF CHEMICAL ENGINEERING AND APPLICATIONS (IJCEA) .....	65
<b>To'rayev Shohruh</b>	
THERMAL STATES OF A PARTIALLY WETTED CATALYST PELLET IN HYDROCARBON HYDROGENATION.....	72
<b>Ashurova Sarvinoz</b>	
IJTIMOIY ADOLATNI TA'MINLASHIDA IJTIMOIY-SIYOSIY BARQARORLIKNING O'RNI.....	75
<b>Тураев Хуршид</b>	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ПРОИЗВОДСТВА АНОДОВ .....	81
<b>Jakhongir Sherkulov</b>	
SAFETY AND FOOD TECHNOLOGY ON CURRENT TRENDS .....	86
<b>М.Ю.Сувонова</b>	
ТРИКОТАЖ МАҲСУЛОТЛАРИНИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ КОРХОНАЛАРИДАГИ ХОМ-АШЁ ТУРЛАРИ.....	90
<b>Джумаева Г.А</b>	
РОЛЬ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ ПРИ МОТИВАЦИИ И ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ В ТЕХНИЧЕСКОМ ВУЗЕ .....	94
<b>Sharipova Shaxnoza</b>	
PRAGMATIC ASPECTS OF METONYMY .....	98
<b>М.Сувонова</b>	
ТҮҚУВЧИЛИК САНОАТИДА ИШЛАБ ЧИҚАРИЛАДИГАН ИП ГАЗЛАМАЈАР .....	100
<b>Fayziyeva Kamila</b>	
ETYMOLOGY OF PRES-formula AND BRIEF INFORMATION ABOUT USING .....	104
<b>Asilbek Xo'jayorov</b>	
АМИР ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА ТАШҚИ ЭЛЧИЛИК АЛОҚАЛАРИ .....	107
<b>Sharipova Shaxnoza</b>	
COGNITIVE CONSIDERATIONS OF METONYMY .....	113
<b>Fayziyeva Kamila</b>	
ORGANIZING LESSONS WITH PRES-FORMULA IN NON-PHILOLOGICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS .....	116
<b>Гулбахор Эшмуродова</b>	
ДАРС ЖАРАЁНИДА “ЎҚИТИШ ВОСИТАЛАРИ” ДАН ФОЙДАЛАНИШ .....	119
<b>Mansurowa Gulbachor</b>	
LEHRMETHODEN IN EINER FREMDSPRACHE AN EINER NICHT-LINGUISTISCHEN UNIVERSITÄT .....	123

<b>Гулбахор Эшмуродова</b>	
ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШНИНГ ИҚТИСОДИЙ БИЛИМЛARНИ ОШИРИШДАГИ ЎРНИ.....	<b>126</b>
<b>Berdiqulova M.T, Shukurova N.Yu.</b>	
QASHQADARYO VILOYATI MEHNAT RESURSLARINING JOYLASHUVI VA BANDLIK MASALALARI.....	<b>132</b>
<b>Ш.Д.Джураева</b>	
СИНТЕЗ И ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ ПАРАМЕТРЫНОВОГО АЗОКРАСИТЕЛЯ.....	<b>137</b>
<b>Mansurowa Gulbachelor Machdiewna</b>	
ANWENDUNGEN DER BOOMERANG-TECHNOLOGIE IN DER STUDIEN DER MENSCHLICHEN MENTALEN TEMPERAMENTE.....	<b>141</b>
<b>Latipova Umida, Rahimberdieva Dildora</b>	
METHODS AND APPROACHES TO TEACHING SPELLING TO LISTENERS.....	<b>144</b>
<b>Jabborova Hamida</b>	
SOCIOLINGUISTIC PROPERTIES OF ENGLISH AND UZBEK ENDEARMENT WORDS.....	<b>151</b>
<b>Djumayeva N.E.</b>	
TA'LIM MAZMUNINI MODERNIZATSİYALASHNING DIDAKTIK MASALALARI.....	<b>154</b>
<b>М. Ярматова, И. Элбердиев</b>	
ПРИМЕНЕНИЕ ИКТ И ИНТЕРНЕТА В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ.....	<b>159</b>
<b>Д. Рахимова</b>	
ПРИМЕНЕНИЕ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ.....	<b>162</b>
<b>Turaboeva Kamila Eshmahmatovna</b>	
LINGUOCULTURAL CONCEPTS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGE COMMUNICATION AT THE SENIOR LANGUAGE UNIVERSITY.....	<b>165</b>
<b>Omonova Maxfurat, Xidirova Malika</b>	
CONTEXT APPROACH IN TEACHING ENGLISH LANGUAGE.....	<b>168</b>
<b>Yu.Ismoilova ,D.Abdieva</b>	
TA'LIMNI INSONPARVARLSHTIRISHDA O'QITISH TAMOYILLARI VA METODLARI O'ZARO ALOQADORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI VA ASOSIY TALABLARI.....	<b>173</b>
<b>Avlaeva Saida, Muminova Laylo,</b>	
INTERNATIONAL FEATURES OF BUSINESS COMMUNICATION.....	<b>176</b>
<b>О. Караконова ,С. Қаюмова</b>	
ЎҚУВЧИЛАРНИ МУСТАҚИЛ ФИКРЛАШГА ҮРГАТИШНИНГ АҲАМИЯТИ.....	<b>182</b>

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ  
ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ  
МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ  
ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ

## **ИНТЕЛЛЕКТУАЛ САЛОҲИЯТ - ТАРАҚҚИЁТ МЕЗОНИ**

**илемий мақолалар тўплами  
10 -сон**

**Тошкент-2018**

As that trend goes on, English proverbs which are part of traditional culture lose their conventional significance. The proverb used to be a form of collective' consciousness and has evolved in its language based on traditional experiences. Transmission of proverbs was an essential part of culture and a prerequisite for education and the formation of self. Those past proverbs, however, have been driven away from education. What is more, the proverb is even on the verge of extinction. The proverb has been left as mere information which is individualistic, but not imperative or social at all.

#### THE LIST OF THE USED LITERATURE

1. Амосова Н. Н. Основы английской фразеологии Л. 1963.  
стр123
2. Амосова Н. Н. Основы английской фразеологии Л. 1963.  
стр144
3. Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке // Виноградов В.В.
4. Лексикология и лексикография: Избр. Тр. - М.: Наука, 1986.  
стр.17
5. Shirley Arora, Nigel Barley, Otto Blehr, Margaret Bryant, David Cram, Alan Dundes, Galit Hasan-Rokem, George Milner, FeterSeitel
6. Jaii Fredrik Kindstrand "The Greek Concept of proverbs" 1992

Қарши ДУ ўқитувчи:

К. Абдуллаева

Қарши ДУ талабаси:

Ж.Х.Хайитов

#### ЭЛЕКТРОН ЎҚУВ –МЕТОДИК МАЖМУАЛАРНИНГ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИ СИФАТИНИ ТАЪМИНЛАШДАГИ ЎРНИ ВА УЛАРНИ ЯРАТИШГА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР

Мамлакатимизда таълим-тарбия жараёнини янги босқичга кўтариш, унинг сифат ва самараадорлигини таъминлашда замонавий ахборот ва коммуникация технологияларини жорий этиш кадрлар тайёрлаш миллий моделини амалга оширишнинг тегишли босқичларида белгилаб берилган. Республикализнинг Биринчи

Президенти И.А.Каримов бу масалада “...бугун ҳәётимизга чукур кириб бораётган Интернет тизими кенг жорий этиш, ёшларимизни Ўзбекистоннинг қадимий ва бой тарихи, эзгу қадриятларимиз, юксак аҳлоқий фазилатлар руҳида тарбиялашга хизмат қиласиган миллий ахборот ресурсларини шакллантириш ва ривожлантириш, бу борада ўзбек тилининг имкониятларидан самараали фойдаланиш масаласи доимо эътиборимиз марказида туриши лозим” деб бежиз таъкидламаган.<sup>3</sup>

Республикамизда таълим соҳасида рўй бераётган янгиликлар таълимнинг барча босқичларида ўкув жараёнини методик таъминотини ривожлантириши тақозо этади.

Таълим олувчилик учун мустакил таълим олиш имкониятларини, таълимнинг электрон ахборот ресурсларини шакллантириш ва ривожлантириш учун зарур шароитларни яратиш таълим мазмунини такомиллаштиришнинг асосий омилларидан саналади.

Бугунги кунда илм-фан жадал тараққий этаётган, ахборот-коммуникация воситалари кенг жорий этилган жамиятда барча фан соҳаларида билимларнинг тез янгиланиб бориши, таълим олувчилик олдига мунтазам ва мустакил равишда янги билимларни излаш, эгаллаш вазифасини қўяди. Бунга эришиш таълим муассасаларида фанлардан электрон ўкув-услубий мажмууларнинг янги авлодини яратишни тақозо этади.

Фаннинг электрон ўкув-услубий мажмуаси (ЭЎММ) янги дидактик восита саналиб, Давлат таълим стандарти ва фандастурларида белгиланган талаблар асосида талабалар томонидан эгалланиши лозим бўлган билим, малака ва кўникмаларни компетентлик даражасида ривожлантириши, ўкув жараёнини комплекс лойиҳалаш асосида кафолатланган натижаларни олишни, мустакил билим олиш ва ўрганишни ҳамда назоратни амалга оширишни таъминлайдиган, талабанинг ижодий қобилиятларини ривожлантиришга каратилган электрон кўринишдаги ўкув-методик манбалар, дидактик воситалар ва материаллар ва мезонларни ўз ичига олади.<sup>4</sup>

<sup>1</sup> Каримов И.А. Асосий вазифениз-Ватанлимида тараккиётни ва ҳалқини фаровонлигини янали юксалтиришдир. – Т.: “Ўзбекистон”, 2010

<sup>2</sup> Узлуксиз таълим тизими учун ўкув адабиётларининг янги пайданинг яратиш концепцияси. Тошкент-Шарқ”.-2002

ЭҮММ фан дастурига мувофик шахсга йўналтирилган, ривожлантирувчи ва замонавий ахборот-коммуникация мухитида мустақил таълим олиш технологиялари, тамойиллари ва талаблари асосида ишлаб чиқилади.

Педагогик кузатув ва изланишлар олий ва ўрта маҳсус касб-хунар таълимида ишлаб чиқилган ЭҮММларда катор камчиликлар борлигини, таҳсил олувчиларнинг улардан фойдаланишида бороз қийинчиликлар туғилаётганини кўрсатади. ЭҮММни яратиш жараёни мураккаб бўлиб, ўқитувчидан изланиш ва алоҳида методик ёндашувни талаб этади.

Шуни эътиборга олган ҳолда, мақоламизда ЭҮММни ишлаб чиқишига қўйиладиган замонавий талабларни ёритишга ҳаракат қилдик.

ЭҮММни ишлаб чиқишига қўйиладиган талабларни 4 гурӯхга ажратиш мумкин: дидактик талаблар, психофизиологик талаблар, методик талаблар, техник талаблар.

ЭҮММни ишлаб чиқишига қўйиладиган дидактик талаблар деганда, ишлаб чиқилган мажмуанинг илмийлик тамойилига мувофиқлиги, техника ва технологияларнинг сўнгги ютукларини ўзида мужассамлаштиргани, тақдим этилаётган материалларнинг таълим олувчиларнинг ёши ҳамда индивидуал хусусиятларига хос мураккаблик даражасида бўлиши тушунилади.

Фикримизча, ЭҮММ замонавий ахборот ва телекоммуникация технологияларининг устунликларидан фойдаланган ҳолда қўйидаги дидактик талабларга жавоб бериши лозим:

1. Мослашувчанлик талаблари. ЭҮММ таълим олувчининг индивидуал имкониятларига, ўқитиши жараёнида унинг билимлари, қўнималари, ва психологияк хусусиятларига мослаштирилган бўлиши керак.

2. Ўқитишининг интерфаоллик талаблари. Ўқитиши жараёнида таълим олувчи ва ЭҮММнинг ўзаро ҳамкорлигининг таъминланиши, интерфаол мулоқот ва тескари алоқани амалга ошириш имкониятлари эътиборга олиниши зарур.

3. ЭҮММнинг ўкув ахборотини тақдим этишда компьютер визуаллаштириш имкониятларини жорий этиш талаблари, яъни замонавий электрон воситалар ёрдамида ўкув ахборотини сифатли намойиш этишни таъминлаш.

4. ЭЎММ –таълим беришнинг тўлиқлиги, узлуксизлиги ва таълим олувчиларнинг фикрлаш, мустақил қарор қабул қилиш маҳоратини шаклланишини таъминлаши лозим.

ЭЎММни ишлаб чиқишига қўйиладиган психофизиологик талаблар талабаларнинг мустақил таълим олиш кўникма ва малакаларини шакллантиришда уларнинг функционал ва психофизиологик имкониятларини инобатга олишни кўзда тутади. ЭЎММда тақдим этилган ахборот ёки маълумотларнинг кўплиги ва фойдаланувчининг интеллектуал даражасидан юқори бўлиши, уни ортиқча толиктириши мумкин бўлса, маълумотларни узатиш тезлигини ошириш эса уларнинг ўзлаштириш сифатини пасайишига, хатоликлар сонининг ошишига ва соғлигига салбий таъсир қилиши мумкин.<sup>5</sup>

Методик талаблар ЭЎММга мўлжалланган ўқув фанининг ўзига хослиги ва хусусиятларини, унинг қонуниятларини, изланиш усулларини, ахборотга ишлов беришнинг замонавий усулларини жорий қилиш имкониятларини хисобга олишни ўзида мужассамлаштиради. ЭЎММ ўқув материалини тақдим этишнинг тушунчали, образли ва харакатли компонентларининг ўзаро боғлиқлигига таянган ҳолда курилиши, фанлараро мантиқий ўзаро боғлиқликни хисобга олиниши, ўқув материалини босқичма-босқич эгаллаш жараёнида тўлиқ назоратларни амалга ошириш имкониятларини таъминлаши лозим.

ЭЎММни ишлаб чиқишига техник талаблар унинг таркибидаги маълумотларнинг ҳажми, расмийлаштириш тартибини белгилайди. Дастлабки нормативлар сифатида қуидагилар олинади:

1. Бир маъруза соати стандарт тўрт бетдан кам бўлмаган матндан иборат бўлиши керак.
2. Тренинг ва саволлар миқдори умумий соатнинг 2 баробаридан ошмаслиги керак.
3. Назорат тестлари ҳажми ва курс ишлари мавзулари, якуний назорат саволлари миқдори фан бўйича умумий соатнинг ярмидан ошмаслиги лозим.

<sup>5</sup> Электрон ўқув методик мажмуалар ва таълим ресурсларини яратиш методикаси ўқув кўлланмана.Т.:ОЎМТВ, 2010, 8-бет

Барча назарий материаллар (маъруза матнлари) бўлим, параграф ва мавзулардан таркиб топади, хар бир бўлим, мавзу ва параграф алоҳида файлларга жойлаштирилиши керак. Матнли файллар мазмун-мундарижасига кўра лотин ҳарфлари ёки рақамлар асосида ракамланиши мақсадга мувофиқ.

Шунингдек, алоҳида файлларда машғулотлар учун зарур бўлган турли жадваллар, адабиётлар, глоссарийлар, муаллифлар тўғрисидаги ахборотларни жойлаштириш талаб этилади.

Хуроса қилиб айтганда фанлар бўйича ишлаб чиқиладиган ЭЎММларнинг юқоридаги талаблар асосида яратилиши таълим жараёниниг сифатли бўлишини, ўқитувчининг дарс жараённида вақтни тежаши, кўп ахборотни қисқа муддат ичida тақдим эта олиши, тахсил олувчиликнинг ўзига қулай вақтда муайян фан юзасидан зарур топшириқларни бажариши учун маълумотларни излаши ҳамда мустақил равишда билим ва кўникмаларни эгаллашини таъминлайди.

#### **Адабиётлар:**

- 1.Каримов.И.А Асосий вазифамиз-Ватанимиз тараққиёти ва халқини фаровонлигини янада юксалтиришлар. – Т.: “Ўзбекистон”, 2010
- 2.Узлуксиз таълим тизими учун ўқув адабиётларининг янги авлодини яратиш концепцияси. Тошкент-Шарқ”.-2002.
- 3.Электрон ўқув методик мажмуалар ва таълим ресурсларини яратиш методикаси ўқув қўлланма.Т.:ОЎМТВ, 2010, 8-бет

**QarDU o`qituvchisi: Nashirova Shaxnoza  
Farmonova Shahlo**

#### **O`GZAKI NUTQNI O`RGATISHDA CHET TILLARINING O`RNI**

Ma’lumki turli o’quv yurtlarida chet tilini o’rgatishda talabalar uchun axborot olishning eng zarur vositasi o’qish hisoblanadi, ayniqsa chet tili muhiti mayjud bo’lmagan bizning respublikamiz sharoitida turli kasb

<b>Otamuratova Rabiya, Rahmatullayeva Zuhra</b>	
MAXSUS MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI	
TARBIYACHISI VA UNING AHLOQIY SIFATLARI .....	62
N. T. Ishankulova	
MÜGLICHE PROBLEME BEI DEM LITERATUREINSATZ .....	67
<b>Otamuratova Rabiya, Rahmatullayeva Zuhra</b>	
MAXSUS MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA	
DIDAKTIK O'YIN JARAYONIDA AQLI ZAIF BOLALARNING	
NUTQIY MULOQOTINI TASHKIL QILISH .....	70
<b>Nashirova Shakhnoza</b>	
SEMANTIC CLASSIFICATION OF PROVERBS IN ENGLISH	
LANGUAGE .....	75
<b>K. Абдуллаева, Ж.Х.Хайитов</b>	
ЭЛЕКТРОН ЎҚУВ -МЕТОДИК МАЖМУАЛАРНИНГ ТАЪЛИМ	
ЖАРАЁНИ СИФАТИНИ ТАЪМИНЛАШДАГИ ЎРНИ ВА УЛАРНИ	
ЯРАТИШГА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР .....	80
<b>Nashirova Shaxnoza, Farmonova Shahlo</b>	
O'GZAKI NUTQNI O'RGATISHDA CHET TILLARINING O'RNI .....	84
<b>D.H.Sunatov , G.K.Ismoilova</b>	
TARIXIY ONG VA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH DIALEKTIKASI ..	87
<b>K. Абдуллаева, З.Ш.Нурмаматов</b>	
КАСБ-ХУНАР КОЛЛЕЖЛАРИ ЎҚУВЧИЛАРИГА ЗАРДУЗЛИК	
САНЬЯТИНИ ЎРГАТИШДА УСТОЗ ВА ШОГИРД	
АНЬАНАЛАРИНИНГ РОЛИ .....	94
<b>Nashirova Shakhnoza</b>	
SYNTACTIC AND SEMANTIC ARGUMENTS .....	98
<b>Д.Х.Сунатов, Х.А.Негматов</b>	
"БАХТ" – ЭПИКУР ТАЛҚИНИДА .....	101
<b>F.Choriyeva, G Komilova</b>	
SYNTACTIC AND SEMANTIC ARGUMENTS .....	104
<b>Quyliyeva Maftuna, M.A. Samadov</b>	
ADVANCED METHODS OF GRAPE DRAINAGE IN UZBEKISTAN ....	106
<b>Н.Раджабова</b>	
ХОТИН-ҚИЗЛАРНИНГ УМАМЛАКАТИМИЗ ИЖТИМОЙ-	
ИҚТИСОДИЙ ТАРАҚҚИЁТИДАГИ ЎРНИ .....	109
<b>G Komilova, F.Choriyeva</b>	
YOSHLARNI TARBIYALASHDA MILLIY TARBIYANING ROLI .....	112
<b>SAMADOV. M. A</b>	
METHODOLOGICAL ASPECTS OF TEACHING COMMUNICATION ..	115
<b>Н.Раджабова</b>	
ЁШЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДА ДИННИНГ ЎРНИ .....	118
<b>O.G.Komilova, Abdullayeva Sevara</b>	
THE METHODS OF LEARNING ENGLISH INDEPENDENTLY .....	121
<b>Ramozonova G.</b>	

NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIK SINONIMLARNING SEMANTIK FUNKSIYASI .....	121
<b>Д.И.Убайдуллаева, Вафоева Назира</b>	
БУГДОЙ ДОНИ ТЕХНОЛОГИК СИФАТ КЎРСАТКИЧЛАРИГА МИНЕРАЛ ВА ОРГАНИК ЎТИЛЛАРНИНГ ТАЪСИРИ .....	127
<b>Рамозонова Г</b>	
ЛУГАВИЙ БИРЛИКЛАРНИНГ МАЛЬНО ПАРАДИГМАСИ .....	130
<b>Д.И.Убайдуллаева, Холдавлатова Гавҳар</b>	
ТУПРОҚ АГРОКИМЁВИЙ ҲОЛАТИ ВА БУГДОЙ ДОНИ ТЕХНОЛОГИК СИФАТ КЎРСАТКИЧЛАРИГА МИНЕРАЛ ВА ОРГАНИК ЎТИЛЛАРНИНГ ТАЪСИРИ .....	132
<b>Nilufar Jumaeva</b>	
THE USAGE OF ENGLISH IDIOMS .....	136
<b>Шайманова.А.Э</b>	
ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА ЁШЛАРНИ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШДА ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯНИНГ ЎРНИ .....	141
<b>Jumaeva Nilufar, Chorieva Laylo</b>	
USING DETACHED ELEMENTS OF SENTENCES IN THE NOVELS BY JACK LONDON AND THEIR LINGUISTIC, SEMANTIC ANALYSIS .....	143
<b>Бойқобилова Р.</b>	
СОГЛОМ АВЛОД ТАРБИЯСИДА ЭКОЛОГИЯНИНГ ТАЪСИРИ .....	147
<b>Нилуфар Жумаева, Гулираъно Чариева</b>	
ПОНЯТИЕ И КЛАССИФИКАЦИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ .....	150
<b>Маматова М.Б.</b>	
ИСТОРИЯ ЧАЯ В УЗБЕКИСТАНЕ (второе половина XIX века) .....	154
<b>Элмурадова Л.Н.</b>	
ПОВЫШЕНИЕ ГРАМОТНОСТИ С ПОМОЩЬЮ ИЛП (НЕЙРОЛИНГВИСТИЧЕСКОГО ПРОГРАММИРОВАНИЯ) НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА .....	158
<b>Нилуфар Жумаева</b>	
ПРОИСХОЖДЕНИЕ ИДИОМ И ПОГОВОРОК АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА .....	163
<b>Эшматов Махмашкур</b>	
ТАБИАТДАГИ БИФУРКАЦИЯ ҲОЛАТЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ЁШЛАР ИЖТИМОЙ ҚИЁФАСИГА ТАЪСИРИ .....	166
<b>Inatov Shamsiddin</b>	
IMPACT OF CULTURAL DIFFERENCES IN INTERTEXTUAL TEXTS ON TRANSLATORS .....	172
<b>Kodirova Dilafruz</b>	
APPLYING AUTHENTIC MATERIALS ON THE LESSONS .....	175
<b>Элмурадова Л.Н.</b>	
ОСОБЕННОСТИ МЕТОДИКИ ЭВРИСТИЧЕСКОГО ОБУЧЕНИЯНА	177